

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NURALI ERKAYEV**

**BASTAKORLIKNI O'QITISH USLUBIYOTI**

**5150100 – Bastakorlik san'ati**

**Darslik**

**5150100 – Bastakorlik san'ati  
ta'lif yo'nalishi 4-kurs talabalarini uchun**

**“Musiqa” nashriyoti  
Toshkent  
2020**

**XXXXX**

**XXX**

**Erkayev N.I.**

**Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti.** O'zbekiston davlat konservatoriysi bakalavriati talabalar uchun darslik. - T.: 2020. - **87 b.**

**XXXXXXXXXX**

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

***Mas'ul muharrir:***

**O.U.Abdullayeva** – O'zbekiston davlat konservatoriysi professori, kompozitor

***Taqrizchilar:***

**A.M.Mansurov** – O'zbekiston davlat konservatoriysi professori, kompozitor

**R.A.Abdullayev** – O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor

Ushbu darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasida 5150100 - "Bastakorlik san'ati" bakalavriat ta'lif yo'naliishi bo'yicha 4-kursda tahsil oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, shu yo'naliishning o'quv dasturi asosida tuzilgan. "Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti" fani ma'ruzalari asosida yaratilgan bo'lib, unda ma'ruzalarni o'rganish bo'yicha bastakorlik san'ati ta'lif yo'naliishlari va mutaxassisliklari ma'ruzalar matni, test savollari, ma'ruzalarda keltirilgan atamalarning glossariysi jamlangan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari talabalar uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar, respublikamizda olib borilayotgan san'at sohasidagi islohotlar jarayonlariga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Данный учебник предназначен для студентов 4-курса направления 5150100 - "Композиторское искусство" и создан на основе учебного плана данного направления.

Информация, которую содержит учебник может быть полезной широкому кругу интересующихся методикой преподавания специальных предметов для воспитания композитора.

This tutorial is intended for graduate specialty 5150100 - compositional art. The information contained allowance may be useful to a wide range of interests methods of teaching special subjects for the education of the composer.

© "Musiqa" nashriyoti, 2020

ISBN **XXXXXXXXXXXXXXXXXX**

© Erkayev N.I., 2020

## SO'ZBOSHI

Yosh bastakorni tarbiyalash masalasi musiqiy pedagogikada murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Konservatoriya bastakorga kelajakda zarur bo'lган professional ko'nikmalarni berish bilan chegaralanmaydi. Bastakor bilim va malakasini oshirishi uchun butun umr o'qishi va o'rganishi kerak. Hayotda oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishi uchun mahoratini mukammalashtirishi, qalamini o'tkarlashtirishi lozim. Konservatoriyadagi ta'lim bu – bilim va malakaning eng kami bo'lib, u hayot maktabining boshlanishi sifatida juda muhim o'rın kasb etadi. Shuning uchun pedagoglik mahoratining asosi talabalarga mustaqil ishslash xususiyatlarini o'rgatish, o'zlashtirgan bilimini hayotga tadbiq eta olishga ko'maklashishdan iborat.

Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti pedagogik ishning nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamagan o'quv kursini o'zida namoyon etib, kelajakda o'rtal maxsus musiqa o'quv yurtlarida bastakorlik fanining o'qituvchisi bo'ladigan talaba bastakorlar uchun mo'ljallangan. Ushbu darslik bo'lajak o'qituvchilarga kelajakda amaliyatda qo'llashi uchun zarur bo'lган pedagogik ko'nikmalarni egallahsga yordam berishiga mo'ljallangan.

Bastakorlikni o'qitish uslubiyotining vazifasi – yosh mutaxassisni shaxs sifatida faol shakllantirishdir. Ta'limning asosiy qismini mashg'ulotlarni aniq o'tish shakli tashkil etishi lozim. O'qitishning asosini dars tashkil etishini anglab yetishi zarur. O'qituvchining vazifalari – talabalarni dars rejasini to'g'ri tuzish, darsda va uy vazifalarini berishda yangi va oldingi materiallarni to'g'ri taqsimlashni bilishi lozim. Mavzularni o'tayotganda kerakli adabiyot, o'quv-uslubiy va ilmiy adjabiyotlardan to'g'ri foydalana olish juda muhimdir.

Bastakorlikni o'qitish uslubiyotida talabani milliy musiqiy merosni ijodiy qo'llashga yo'naltirish juda muhimdir.

Mustaqillikka erishgach, eng avvalo, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlodni milliy ma'naviyatimizning nodir namunalari asosida yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash maqsad qilib olindi. 1997 yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir yangi avlod kadrlarini tayyorlashga qaratildi. Bu borada ta'lim va tarbiya sohasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2008 yil 7 yanvardagi "musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni yosh avlodning musiqiy tarbiyasini eng quyi pog'onalardan boshlash va uning sifat darajasini yuqoriga ko'tarishga qaratildi. Ushbu farmonning bajarilishi respublikamizda 300 dan ziyod musiqa va san'at maktablarining barpo etilishi, ularning oxirgi rusumdagи musiqiy cholg'ular hamda yangi avlod adabiyotlari bilan ta'minlanishiga asos bo'ldi.

I.Karimovning shaxsan bildirgan tashabbusi bilan O'zbekiston davlat konservatoriysi uchun yangi bino barpo etilishi, uning huzurida Iqtidorli akademik litseyi, pedagog kadrlar uchun Malaka oshirish fakulteti, Ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot markazi, Musiqiy cholg'ular muzeyining tashkil etilishi musiqa san'atining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqqani hozirda mammuniyat bilan e'tirof etilmoqda.

2015 yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyrug'i bilan yurtimizda "Yosh bastakorlar Respublika Tanlovi" ta'sis etildi. Yosh avlod ijodkorlarining ushbu tanlovga bo'lgan katta qiziqishi bunday tadbirning ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Yurtimizda ilk bora hukumat darajasida tashkil etilgan, o'ta zarur ushbu ijodiy tanlov respublikamizning ijodkor yoshlarini yangi g'oyalar birligi ostida birlashtirdi. 2016 yilda ushbu tanlov ikkinchi bora o'tkazildi va o'zining navbatdagi muvaffaqiyatiga erishdi. Shu kabi tanlov-festivallar yosh bastakorlarni musiqiy ko'nikmalarini shakllantirishda, kelajakda bastakorlik san'atini o'rganishga, targ'ib qilishga, uslubiyotini o'rgatishga turtki bo'ladi.

## **1 – SEMESTR**

---

### **1-DARS: KIRISH**

#### **Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti fanining maqsad va vazifalari**

Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti musiqa ta'limi tizimida muhim va murakkab masalalardan birini tashkil etadi. Bastakorlikni musiqa kollej va litseylarining birinchi bosqichidan boshlab uzlucksiz o'tish maqsadga muvofiqdir. Bastakorlik amaliyoti musiqa nazariyasi, garmoniya, polifoniya, tahlil kabi nazariy fanlar bilan uzviylikda o'tkazilishi zarurdir. Chunki aynan nazariy bilimga ega bo'lgandan so'ng asar yaratishga bo'lgan ishtivoq, xohish va istak tug'iladi. Bitta musiqiy ohangni yaratish bilan ish bitmaydi. Uning chiroyli va tinglovchiga yoqadigan darajada yangrashi uchun nazariy fanlarni puxta o'zlashtirish zarurdir. Bastakorlikni o'qitish uslubiyotiga mana shu nuqtai nazaridan yondashish yosh o'quvchi ijodkorni bosqichma-bosqich shakllanib, amaliy ko'nikmalarining vujudga kelishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Musiqashunoslikda bastakorlik sirlarini o'qitish va o'rganish uslubi, musiqiy asarlarni yaratish, cholg'ulashtirish va notalashtirish, cholg'u asboblarning o'ziga xos xususiyatlardan foydalanishga oid adabiyotlar mavjud. Ular orasida Galitskaya, Kogoutek, Chulaki, Yevlaxov, Messner, Gnesin, Dmitriev, O.Abdullayeva, Y.Yanovskiylarning ishlari e'tiborga loyiqidir.

Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti nazariyasini o'rganish masalasi shubhasiz ko'pgina musiqaga oid adabiyotlarni o'zlashtirish, ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish vazifalarini oldimizga qo'yadi. Bastakorlikni o'qitish uslubiyotinini o'rganishdagi tizimlilik janrlar va ularning taraqqiyotidagi ko'rinishlari tasnifiga, puxta tuzilgan o'quv rejasiga, mavzularning to'g'ri taqsimlanishiga, janrlarning musiqiy misollar bilan aniq ko'rsatib ochib berilishiga alohida e'tibor qaratish lozimligini talab qiladi.

Bastakorlikni o'qitish uslubiyotini o'rganish jarayonida cholg'u asboblari, ularning o'ziga xos tembr va registrlarini puxta o'zlashtirish, asar yaratishda cholg'ularning o'zaro munosib bog'lanishiga e'tibor qaratish va bu qirralarni o'quvchilarga to'g'ri va to'liq yetkazib berish, ularning ma'lumotlarni qanchalik to'g'ri qabul qila olganliklarini nazorat qilish, har bir darsda tanlangan mavzudan kelib chiqqan holda musiqiy asarlarni tahlil qilish, bu musiqiy asarlar ham jahon klassikasi namunalarini, ham o'zbek kompozitorlik ijodiyoti va milliy merosimiz namunalarini tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilishi talab qiladi.

Bastakorlik san'atining ko'p asrlik an'analari va bugungi kunda duch kelinayotgan zamонавиј мусиқа натуналари, техник мусиқа чолг'улари, ularning ijodkor uslubiga ta'siri, estrada musiqasining o'ziga xos xususiyatlari, yaratilgan asarning tinglovchi tomonidan qabul qilish psixologiyasi masalasi ham yuzaga keladi.

**Bastakorlik fanining uslubiy masalalari.** Fanni o'zlashtirgan talabaning bilishi lozim bo'lgan dars maqsadi, bilim va ko'nikmalari hajmi fanga oid o'quv dastur bilan belgilanadi. O'quv dasturi Davlat standartlari tomonidan belgilangan bo'lib, mazkur fanni o'tuvchi o'qituvchi bilishi shartdir. Bundan dasturda

ko'rsatilgan o'qish rejasini to'liq o'rganish talab etiladi. Mavzuiy rejada ayrim o'zgarishlar yuzaga kelishi ham mumkin. Bunday o'zgarishlar guruhdagi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning musiqiy qobiliyatidan va o'quv yurtining pedagogik an'analaridan kelib chiqadi.

Mavjud dastur asosida o'quvchilarning bilimi va saviyasidan kelib chiqqan holda o'qituvchi ish rejasini (kalendar reja) tuzadi. Mavzularni o'tish ketma-ketligi o'qituvchi tomonidan o'zgartirilishi, yoki o'quv qo'llanmadan foydalanish tartibi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ish rejasini tuzishda o'qituvchi mavzuni bayon etish, uni o'quvchilar tomonidan amaliy qabul qilish va texnologik ko'nikmalarni ishlab chiqish uchun vaqt ajratish kerakligini inobatga olishi lozim.

Darsni o'tish ketma-ketligida mavzularni bosqichma-bosqich o'tilishi nazarda tutilishi lozim. Mavzuni bayon etish amaliy mashg'ulotlar bilan ketma-ket bo'lishi lozim. Ish rejasini tuzishda ham, darsni o'tishda ham bu tamoyilga asoslanish tavsiya etiladi. Shuni inobtaga olish kerakki, har biri amaliy tarzda mustahkamlanadigan kam – kam yetkaziladigan mavzu katta mavzular va uzoq cho'ziladigan amaliy mashg'ulotlarga nisbatan yaxshiroq o'zlashtiriladi.

Ish rejasini tuzayotganda kursning birinchi mavzulari nisbatan qiyin va asosiy ekanligini (metr, ritm, lad, tematizm va bsh.) inobatga olish lozim. Shuning uchun texnologik ko'nikmalarni mustahkamlanishini ta'minlovchi aynan shu mavzularda ko'proq vazifa berish o'rnlidir.

O'rta maxsus o'quv yurtlarida bastakorlikni o'rganishda shakllarni o'rganish, diatonikakkordlarni yaxshi bilish, murakkab bo'limgan xromatika, yondosh tonalliklarga og'ishma va modulyatsiyalarni bilish asosiy materialni tashkil etadi.

Bastakorlik bo'yicha birinchi kirish darsi muhim va serqirradir. Bastakorlikning muhim qirralarini ochib berish bilan bir qatorda uning musiqa ta'limining barchasini qamrab olganligini, ularni yaxshi tushunish va o'rganish lozimligini o'quvchilar ongiga yetkazib bera olish muhimdir. Fanning muhim mavzularini boshlashdan oldin ifodaviylik, ifodaviy vositalar va hamohanglik haqida tushunchalar berib o'tish lozim.

**Ifodaviylik** – musiqa tilining barcha qirralari bilan (lad, melodik harakat, ritm, sur'at, faktura, baland-pastlik, registr, shtrixlar va h.z.) hamohang bog'liqidir.

Bastakorlikda shaklni tashkil etadiganlar orasida beshta asosiy holat mavjud bo'lib, ular **bo'linish, kadanslar, ekspozitsiya bo'limlari, rivojlantiruvchi qism, avjdir.**

### Savollar:

1. Bastakorlik fanining vazifalarini aytib o'ting?
2. Bastakorlik fanining maqsadi nimadan iboart?
3. Ish dasturining mazmuni va bo'limlarini aytib o'ting?

### Topshiriq:

1. Kompozitorlik sohasini boshqa bir sohalar bilan bog'liqligini o'rganing.
2. O'z tajriba va istaklaringizga asoslangan holda o'zingiz to'g'ri deb hisoblagan o'rta maxsus o'quv yurtlarida olib borish uchun ish rejasini loyihasini tuzish.
3. O'zbekiston kompozitorlarining qalamiga mansub opera va baletlarni tinglang.

## **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. A.H.Jabborovning “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” T. 2004
2. P.Chaykovskiy. “Bolalar albomi”.
3. Jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yillar nashrlari.
- 4.A.Jabborov. “Musiqali drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlari ijodida”. T., 2000

**Tayanch iboralar:** *bastakorlik, lad, ohang, ritm, sur’at*

### **2-4-DARSLAR: Lad, ohang va metr. Tematizm ustida ish olib borish**

Ohangning yaratilishi, kuyning shakllanishi, kadans va tonal o‘zgarishlarning mutanosibligi, shaklning bo’linishi va tuzilishi biron bir lad va sur’atsiz amalga oshirilmaydi.

Har bir lad bosqichlarining interval mutanosibligi va tonal-garmonik funktsiyalari bilan xarakterlanadi. Tovushqatorning turli tizimi singari ladlar ham ma’lum turg’un va noturg’un songa ega. Har bir lad ko’pincha oktava intervali doirasiga sig’adi, ularning bosqichlari oralig’i esa ton va yarimtonliklar bilan ifodalanadi. Interval tuzilmasidan kelib chiqqan holda lad o’ziga xos bo’yoqlarga ega bo’ladi. Turg’un va noturg’un tovushlarning o’zaro munosabat tizimiga **lad** deyiladi. Ladlar ko’p, lekin klassik musiqada asosiy o’rinni **major** va **minor** ladi egallaydi.

Tonikasida, ya’ni birinchi bosqichida major uchtovushligi (katta tertsiya va kichik tertsiya) tuzib bo’ladigan lagda **major ladi** deyiladi.

Tonikasida ya’ni birinchi bosqichida minor uchtovushligi (kichik tertsiya va katta tertsiya) tuzib bo’ladigan lagda **minor ladi** deyiladi.

Ladning tuzilishlarini tushuntirishda o’quvchilarga ularning turlari, bir-biridan qaysi bosqichlari bilan ajralib turishi, buning natijasida qanday xususiyatlarni kasb etishi haqida tushunchalar berib o’tish lozim.

Major va minor lardalari asosiy negizni tashkil etsada, ularning asosida xalq ladlari va pentatonika ladlari ham mavjudligi e’tibordan chet qolmasligi muhimdir.

**Ohang** ikkita tovushning gorizontal ketma-ketligidan yoki ularning vertikal birgalikda yangraganidan paydo bo’ladi. U yoki bu holda ohangning badiiy sifati ladning turli bosqichlarini taqqosli qabul qilish bilan belgilanadi. Ohang bitta tovush orqali ham ifodalanishi mumkin, lekin bu tovush nisbatan uzun yangrashi, yoki bitta bosqichda takrorlanishi lozim. Ohang badiiy ta’sirning kuchli vositasini tashkil etadi; uning jipslashuvida badiiy ifodaviylikka olib keluvchi intervalika katta rol o’ynaydi.

Barcha lad tizimlarida tovushlarning ohang rivoji bir xil bo’lib, ular 4 ta turga tayanadi:

1. Bir xil balandliklarning takrorlanishiga;
2. Bitta balandlikning atroflicha kuylanishiga;
3. Bosqichma-bosqich harakat;

#### 4. Interval va sakrashlar bo'yicha harakat.

Musiqiy asardagi vaqt bo'yicha tovushlarning tashkillanishi musiqiy **ritm** deyiladi. Ritmnini musiqiy hodisaning mohiyati va musiqiy san'atdagi tabiat bilan bog'lab turadigan hodisaday tasavvur qilamiz. Ritm o'ziga xosligi va individualligi bilan alohida ajralib turadi. Biron bir asar yoki lavhaning ritmi **ritmik ko'rinish** deb ataladi. Ritmik ko'rinish ritmik ohanglar deb ataluvchi ritmik aylanmalardan tashkil topadi. Bitta musiqiy asarda ritmik ohanglar bir xil yoki turli xil bo'lishi mumkin.

**Metr** (qadim grek tilida o'lchov, me'yor) ritmnining asosidir. Metrsiz ritmnini aniq his etish vujudga kelmaydi. Metrik pulsatsiyani his etmasdan turib turli xil ritmik munosabatlarni esda saqlab bo'lmaydi. **Musiqiy metr** – bu ritmnining shu tomoniki, birinchidan yagona me'yorini his etishni aniqlaydi – cho'zimni o'lchovchi vaqtinchalik hissa, ikkinchidan vaqtinchalik hissalarining taqsimlanishini, birlashuvini yaratadi. Musiqada erkin va qat'iy metrika mavjud. **Qat'iy metrika** kuchli va kuchsiz hissalarining birin-ketindagi kelishi blian xarakterlanadi. **Erkin metrika** esa aniq belgilangan kuchli hissalarining yo'qligi yoki ular orasi bir xil emasligi, ya'ni taktlarning teng emasligi bilan ajralib turadi. Ikki va uch hissali o'lchovlarni o'zida mujassamlagan metrga **oddiy metr** deyiladi. Ikki hissali metr kuchli va kuchsiz hissaning bir maromda almashinib kelishi bilan xarakterlanib, hissalarining aniqligi bilan ajralib turadi. Marsh va polka janrlariga xosdir. Uch hissali metr bitta kuchli va ikkita kuchsiz hissalar bilan ajralib turib ravonligi, tugalligi bilan ajralib turadi. U vals, polonez, menuet, gavot kabi raqs janrlariga xosdir. Qolgan barcha metrlar bir turdag'i yoki turli xil metrlarning qo'shilishi natijasida yuzaga keladi.

Tovushning ritmik rivojiga sur'at bevosita bog'liq bo'lib, metronom qo'yganda tovushning aniq uzunligini ko'rsatib beradi. Masalan, Andante = 76 yoki Allegro = 152. Aynan shu sur'atga amal qilinganda tovushlarning vaqtdagi mutanosibligi bastakorning badiiy maqsadini aniq ko'rsatib bera oladi.

**Tematizm** – **mavzuiylik** – musiqiy ijodning asosidir. Tematizm tushunchasi keng ma'noda (mavzu musiqiy obrazni ifodalovchi sifatida) barcha ifodaviy vositalar turlarini, musiqiy tafakkurning asosiy unsurlarini – kuy, ritm, garmoniya, polifoniya, kolorit, faktura, shakl va rivojlanish tamoyillarini o'zida mujassamlaydi.

#### Savollar:

1. Lad va ohangning musiqiy asar yaratishda tutgan o'rni?
2. Metr va ritmning yaratiladigan asardagi ahamiyati?
3. Tematizm – bastakor ijodining asosiy "yo'lboshchisi" mi?

#### Topshiriq:

1. Lad, ritm, metr, sur'at atamalariga tavsif berish.
2. Tematizmning asar bastalashdagi o'rnini aniqlab berish.
3. L.Betxovenning 9-simfoniyasi Finalini tahlil qilish.

#### FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. P.Chaykovskiy. "Bolalar albomi".

2. Juhon va O'zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yillar nashrlari.
3. A.Jabborov. "Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlari ijodida". T., 2000
4. Messner Ye. Osnovы kompozitsii. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *lad, ohang, ritm, sur'at, tematizm.*

### **5-6-DARSLAR: Musiqada janrlar tushunchasi**

**Janr** – fransuz tilidan olingan bo'lib, tur, xil ma'nosini anglatadi. Janr – ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, musiqiy asarlarning syujet, kompozitsion tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan har bir turini bildiradi. Bu tushuncha tasviriy san'atda paydo bo'lib, musiqaga ham, boshqa san'at turlariga ham o'tgan.

Janrnı aniqlashda uning kelib chiqishi, odamlar hayotidagi ahamiyati, ijro etilish sharoiti (joyi) va usuli (yo'li), mazmuni va shaklinining xususiyatlari muhim o'rın tutadi. Janrlar – ijtimoiy-hayotiy ehtiyoj ta'sirida yuzaga kelib, jamiyat taraqqiyoti, talablariga ko'ra o'sib, rivojlanib, o'zgarib boruvchi tarixiy jarayondir.

Binobarin, janr tushunchasi o'zgarmas, qotib qolgan kristall tushuncha deb bo'lmaydi.

Asosiy tamoyil bo'yicha janrlar quyidagicha turkumlanadi:

- mazmuni, alohida ifodalash turlari bo'yicha – lirik, epik, tasviriy va h.z.;
- ijro etish sharoiti bo'yicha – kontsert, maishiy janrlar, diniy janrlar, teatr janrlari, marosim janrlari va h.z.;

Qo'shimcha tamoyilni qo'llaganda janrlarni oddiy (ariozo, romans, qo'shiq) va murakkab (opera, simfoniya, oratoriya, kantata va h.z.), ijrochilik tarkibiga qarat vokal va cholg'u, tarixiy paydo bo'lismiga qarab "birlamchi" va "ikkilamchi" turlarga ajratish mumkin.

Xalq ijodiyotidan kelib chiqqan janrlar "birlamchi" deb ataladi. Professional musiqa rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan musiqiy asarlar turlarini "ikkilamchi" janrlar qatoriga kiritish mumkin. "Birlamchi" janrlar professional musida yo'q bo'lib ketmaydi, aksincha uning ichida o'z rivoji uchun yangi kuch oladi.

Umuman janrlar to'g'risida gapirganda shuni alohida qayd etish kerakki, har bir janrda o'ziga xos ifoda vositalari yuzaga keladi: melodik, ritmik tuzilmalar, jo'rovoz shakllari, faktura turlari va h.z.

Janr asarning milliy xususiyatlarini u yoki bu yo'naliishga mansubligini bildirishi mumkin. Masalan, fransuz romantik katta opera.

Janr ichidagi janrnı ham ajratish mumkin. Masalan, opera ichiga kirgan ariyalar, xorlar, rechitativlarni ham har xil vokal va cholg'u musiqasining janri deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, qaysi bir omil yoki bir necha omillar ustun turganligini albatta hisobga olish kerak.

Umumiy qilib olganda janr tushunchasi bir nechita savollarga javob beradi bu savolarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Qayerda ijro etilayapti – katta yoki kichik zaldami, estrada, opera yoki dramatik sahnadami, ko'cha yoki maydondami, uy sharoitidami?
2. Kim ijro etayapti – ijrochilar tarkibi qanacha, ularning soni nechta, ovozmi yoki cholg'u asbobimi?
3. Kim uchun ijro etilayapti – tinglovchilar tarkibi, soni, musiqiy tayyorgarligi, didi qanaqa?
4. Nima uchun ijro etilayapti – asarning mazmuni, obrazlar doirasi, ifodalash turi va unga javob beradigan badiiy usullarning yig'indisi qanaqa?

Janrning mazmun jihatni eng muhim va ahamiyatlidir. U yuqorida qayd etilgan punktlarda u yoki bu darajada ishtirok etadi. Chunki musiqiy asarni ijro etish va idrok etish sharoitlari albatta uning mazmuni bilan bog'liqdir.

Janr haqida gapirganda har bir musiqiy janrning mazmuni, yaratilish tarixi, qaysi hollarda qo'llanilishi mumkinligi, ijro etiladigan joyi haqida ham o'quvchilarga to'liq ma'lumot berish tavsiya etiladi. Bunday ma'lumotlar yosh bastakorlarning o'zlari yaratayotgan yoki yaratmoqchi bo'lgan asarlariga o'ziga xos aniqlik kiritishi shubhasizdir.

#### **Savollar:**

1. Janrlarni tasniflang?
2. Janrlarning turlarini aniqlang?
3. Musiqiy janrlarning mohiyati?
4. Musiqiy janrlarga oid ma'lumotlar?

#### **Topshiriq:**

1. P.Chaykovskiyning fortepiano uchun "albomii" turkumidagi pyesalarni tahlil qilib qaysi janrga mansubligini aniqlash.
2. O'zbek kompozitorlari asarlarini janrlar kesimida tahlil qilish.

#### **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Uchebnik garmoni.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M.,1979.

**Tayanch iboralar:** *janr, mazurka, polonez, etyud, sonata, Ifodaviy vositalar,*

## **7-8-DARSLAR: Ifodaviy vositalar ahamiyati. Kuy, garmoniya, polifoniya, faktura.**

Musiqiy obrazni yaratishda ifodaviy vositalarning ahamiyati kattadir. Bastakorlik fanlarida ifodaviy vositalarga e'tiborni qaratish muhimdir. Chunki garmoniya, polifoniya darslarida ularga boshqa nuqtai nazaridan qaraladi. Biz esa aynan tematizm va uni tashkil etish xususiyatlari nuqtai nazaridan yondashamiz.

**Kuy** – yuqorida aytib o'tilganiday, bastakor tafakkurini shakllantirishda asosiy ahamiyatni kasb etadi. Aynan melodik boshlanish musiqa madaniyatida yetakchi o'rinni egallaydi.

O'quvchi yaratgan musiqiy asarda kuyning yakunlanganligiga, tuzilishining aniqligi va ixchamligiga, ohangining yaxlitligiga erishish zarur. Kuyni rivojlantirishda tovushlarning ketma-ketligi, harakatning yo'nalihi, harakatning sakrash yoki ravon yo'naltirish, avjga ko'tarilish va tushish muhim rol o'ynaydi.

**Garmoniya** – akkordlarning o'zaro bog'lanishi ta'limotini ko'rib chiqadi. Garmoniyaning ifodaviy vosita sifatidagi ahamiyati juda kattadir. Yosh bastakorlar garmoniyaning barcha qirralari va imkoniyatlarini o'rganishlari lozim. O'quvchilar bilan ishslashning boshlanishida asosiy vazifa – tematizm ustida ishlaganda garmoniyaning barcha vositalaridan foydalana olishga o'rgatish. Ba'zi asarlarda musiqiy obrazni yaratishda garmonik vositalarning o'rni katta bo'ladi. Yirik janrlarda funksional garmoniyaning dramaturgik vositalaridan foydalanish ham muhim o'rinni tutadi.

Talabalarni jo'shqin va yorqin yozish uslubiga jalg etish bilan bir qatorda, ularning garmonik fantaziyasini boyitish va kengaytirish, yangi va qoliplanmagan garmonik vositalar topishga yo'naltirish lozim. O'quvchining garmonik fantaziyasini boyitish uchun ularning ishida ladning barcha pog'onalarining qo'llanilishiga erishish lozim. Chunki bu bastakorning garmonik tafakkurini erkin qiladi.

Zamonaviy garmonik uslubni topishda turli yo'llar orqali borish mumkin. Dissonanslar soni bilan zamonaviy garmonik tilning originalligini belgilash shart emas.

Orkestrda dissonansning keskinligi har doim yumshaydi. Buni bastakorlar inobatga olishlari lozim.

**Polifoniya** – bir nechita ovozdagi mustaqil kuylarning bir vaqtda hamohang yangrashidir. Ifodaviy vosita sifatida, garmoniya singari bastakorning shaxsiy uslubining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Polifonik texnika, ovoz osti va inventsiyali polifoniya – imitatsiya, kanon, fuga, chakona va passakaliya texnikasiga ega bo'lish bastakorlik san'atini o'rganayotganlarning hammasi uchun keraklidir. Har bir bastakor yetuk ijodkor bo'lganida ijodiy uslubiga xos bo'lgan polifonik shakllarni qo'llaydi.

**Faktura** deganda bastakor o'z ijodiy g'oyasini nota yozuvida bayon etishda foydalaniladigan barcha ifodaviy va texnik vositalarning majmuyi tushuniladi. Faktura mahorati musiqiy fikrni aniq ifodalash uchun qo'llaniladigan vosita hisoblansa-da, o'quvchi uchun asosiy maqsadga aylanmasligi lozim.

Musiqiy obraz va g'oyadan kelib chiqqan holda faktura o'zgaradi: u tiniq va yengil bo'lishi mumkin, og'ir va egiluvchan, gomofon yoki polifonik, bir planli yoki ko'p planli bo'lishi mumkin.

O'quvchi bastakorlar bilan ishlashni fakturali talqinni prelyudiyalar yoki fortepiano uchun katta bo'limgan pyesalardan boshlash lozim. Ishning bu bosqichida o'quvchilarni fortepiano bayonining har xil turlari, fakturali g'oyalarning turli ko'rinishlari bilan tanishtirish foydalidir.

Polifonik musiqa uslubiga tegilmaydigan bo'lsak, turli fakturali qatlamlar – bir, ikki uch, orkestrli va ansamblli musiqalarda undan ham ko'p qatlamlar borligi uchun yaratilayotgan asar o'ziga xos xarakterni kasb eta boshlaydi.

Variatsiya ustida ishslash polifonik yozuvni o'rganishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu muhim shaklni chuqur o'rganmasdan turib turli xil fakturali texnikani o'zlashtirib bo'lmaydi.

#### Savollar:

1. Ifodaviy vositalarning bastakorlik ijodida ahamiyati?
2. Kuy, garmoniya, polifoniya, fakturaning tavsifi?

#### Topshiriq:

1. Ifodaviy vositalar xususiyatlarini bir-biridan ajrata olish.
2. P.Chaykovskiyning 6- simfoniyasining kirish qismini ko'rib chiqish.
3. F.Shopenning 9-Prel'yudiyasini ko'rib chiqish.
4. R.Shumannning "Simfonik etyudlar"ini ko'rib chiqish.

#### FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Dubovskiy. Garmoniya darslari.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M., 1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** janr, mazurka, polonez, etyud, sonata, Ifodaviy vositalar, kuy, ritm, garmoniya, polifoniya, faktura.

#### 9-10-DARSLAR: O'quvchi-shogird iqtidorini aniqlash tamoyillari

Bastakorlik ta'limotida sinfdagi jamoa kata ahamiyat kasb etadi. Musiqiy asarlarni birgalikda chalish va tinglash, kursdoshlarning asarlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, tahlil qilish, o'quvchilarni ijod bo'yicha qiziqtiradigan badiiy g'oya, san'atdagi yangiliklar, mahorat, klassik me'ros, o'ziga xos ijod turlari, musiqiy til kabi savollarni o'qituvchi bilan muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish – bularning barchasi o'quvchi ongini rivojlantirish, badiiy didini shakllantirish, bilim va iqtidorini aniqlash o'quvchi-shogird uchun haqiqiy maktab vazifasini o'taydi.

O'quvchining musiqiy iqtidorini aniqlashda ritm, metr, sur'at, musiqa tarixi, polifoniya, janr va uning turlari, musiqiy cholq'u asbobida ijro eta olishi, garmoniya va eshitita olish kabi vositalar orqali aniqlash lozim. Bunda musiqaga oid savollar, ijodiy mashqlar, o'quvchining asarlarini eshitish yoki o'zining ijrosini tinglash qo'l keladi. Shuningdek, o'quvchining badiiy estetik bilimlarini badiiy

asarlar bo'yicha turli savollar va uning badiiy yechimlari xususidagi fikrlarini bayoni bilan iqtidorini aniqlash tamoyillari ham mavjud.

Bo'lajak bastakorni bilim-ko'nikmalarini, iqtidorini aniqlab olgach, ustoz-shogirt an'anasi asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda bastakorlik san'ati, umuman musiqa san'ati rivojiga ustoz-shogird an'analari poydevordir. Shunga ko'ra O'zbekiston davlat konservatoriysi professor-o'qituvchilari va talaba-shogirdlar o'rtasida uzviy ustoz shogird an'anasi davom etmoqda. Ustozlar oldida nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko'rgan, barkamol avlodni ya'ni, komil insonni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda ustozlarning o'mi kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya to'g'risida bizga meros bo'lib qolgan yozma manbalaridan ustoz va shogirlilik talablari belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o'rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg'or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tadbiq etgan holda ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Farobi ustoz qiyofasida quyidagi fazilatlar mujassam bo'lmos'i lozim deb hisoblaydi:

- o'tkir va uzoqni ko'ra oladigan aql sohibi;
- o'z bilimlarini o'quvchilarga bera olishi va bu faoliyat hamrohi bo'lган mashaqqatli mehnatdan xormasligi va tolmasligi;
- haqiqat va unga intiluvchilarni sevishi;
- yolg'on va uni shior qilib olganlardan g'azablanishi;
- mag'rur ruhga ega bo'lishi va o'z sha'nini yuksak tutishi;
- o'z shogirdlariga adolatli munosabatda bo'lishi;
- qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iylik ko'rsata olishi va boshqalar.

Allomalarimiz ustoz odobining sakkiz shartini sanab o'tganlar. Birinchidan, o'quvchilarga nisbatan shafqatli bo'lishi va ularga o'z i kabi muomalada bo'lishi; ikkinchidan, ustoz ilm o'rgatish va tarbiya berish uchun haq talab etmaslik; uchinchidan, o'quvchiga qilinishi lozim bo'lган nasihatlardan hech birini qoldirmasligi; to'rtinchidan, ta'lim san'atining nozik jihatlaridan biri, muallim o'quvchining yomon axloqini oshkora emas, balki imkoniboricha o'ziga ko'rsatish yo'li bilan tuzatishi; beshinchidan, ilmlardan ba'zilarini o'rganayotgan o'quvchiga boshqa ilmlarni yomon ko'rsatmasligi; oltinchidan, o'quvchiga ilmni fahm-farosati va qobiliyatining ko'tarishiga qarab o'rgatishi; yettinchidan, zehni past o'quvchiga o'ziga xos bo'lган ilmlarni o'rgatishi va sakkizinchidan, ustoz o'z ilmiga amal qilishi lozimligiga urg'u berilgan.

Bugungi kunda ustoz qiyofasida ma'naviy yetuk ustozni ko'rish lozim deb hisoblaymiz. Ma'naviy yetuk ustoz kim bo'lishi kerak? - degan savolga javob izlasak, bizningcha, u - ko'p mutoalaa qilgan, o'rgangan, bilimli, malakali, har qanday ijodkordan ham ijodkorroq, o'z-o'zini ma'nan-ruhan tarbiyalangan, dono maslahatchi, hamdard, ruhiy madadkor bo'lib peshvoz chiquvchi hamda o'z bilimi va barcha axloqiy fazilatlarini shogirdining ma'naviy kamoloti uchun sarflab, jon kuydiradigan, jismonan yetuk va iymonli shaxsdir. Shu bilan birga, qo'lidan kelguncha yaxshi amallar qiladigan, noloyiq ish va noto'g'ri so'zdan tiyilgan,

yomonlikdan uzoq yuradigan, undan xazar qiladigan, shogirdlariga ham o'zidagi fazilatlarni yuqtiradigan ma'naviy insondir.

Ma'naviy yetuk ustoz xushxulqligi, xushfe'llligi, o'z-o'zini ma'nan, ruhan, qolaversa, jismonan tarbiyalanganligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy yetuk ustozning eng muhim shartlaridan biri, ta'sirchan va zalvorli nutq sohibi bo'lib, shogird tuyg'ularini, o'y-xayollarini jilovlay olishi; ikkiinchidan, o'quvchining ma'naviy olamini boyitishga, xulqi va odobini takomillashtirishga xissa qo'shish; uchinchidan, o'z ilmi bilan har qanday shogirdda qiziqish uyg'ota olishdir.

Ma'naviy yetuk ustoz va shogird o'rtasidagi muqaddas masofa yaqinlashsa, oradagi qadrdon rishtalar ham uziladi. Ya'ni, birinchidan, ustoz o'z og'irligini shogird gardaniga tashlab qo'yganda; ikkinchidan, o'z o'quvchisiga sir boy berib qo'yganda; uchinchidan, o'z so'zining ustidan chiqmaganda o'z hurmatini yo'qotadi.

Ba'zi ustozlarimiz "Qancha tarbiya-yu, tanbeh berganimiz bilan ayrim yoshlarni odam qilib bo'lmaydi" deyishadi. Albatta, bu noto'g'ri fikrdir. Chunki, tarbiya tabiatga ta'sir ko'rsatmasligi mumkindir, lekin axloqni o'zgartiradi, ya'ni yaxshi fazilatlarni kamol toptiradi. Bu albatta ma'naviy yetuk ustozning qo'lida. Bordi-yu, uning bo'lgani shu deb o'z holiga tashlab qo'yilsa, yoshlarimiz turli oqimlar va yo'llarga kirib qolishi hech gap emas. Bunday hollarda ma'naviy yetuk ustoz yoshlarga kuchli ta'lim va tarbiya berish bilan yosh avlodga oqu-qorani va yaxshi-yomonni o'rgatish, milliy mafkura asosida e'tiqodni shakllantirish, haq-huquqlari, burch va mas'uliyatini chuqur anglatish zarur bo'ladi.

Ma'naviy yetuk ustozning faoliyatini quyidagi mezonlarga asoslagan holda baholash mumkin:

- o'quvchilarining sog'lom ma'naviy muhiti, kasbiy kamolati bo'yicha qo'lga kiritgan yutuqlari;
- o'quvchilarining maishiy hayotdan xabardorligi va ularning mafkuraviy tayyorgarligi uchun mas'ulligi;
- o'quvchilarining kasbiy ko'nikmasi shakllanishi uchun mas'ulligi;
- o'quvchilarining o'quv va mehnat intizomi, ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi;
- o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish darajasi;
- o'quvchilarining ilmiy-ijodiy ishlarida faol qatnashishi, turli ko'rik tanlovlardagi ishtiropi va qo'lga kiritgan yutuqlari va shu kabilar.

Demak, ma'naviy yetuk ustozlarning shogirdlari mustaqil fikrlaydigan va o'z-o'zini anglagan, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'ladigan voqealarga munosabat bildira oladigan, o'z xatolaridan xulosa chiqara oladigan, shaxsiy manfaatidan mamlakat va xalq manfaatlarini ustun qo'yadigan, Vatanini jonidan-da ortiq ko'radigan shaxslar bo'lib ulg'ayadi. Bunga faqat va yana faqat tarbiya olib boradi.

### Savollar:

1. O'quvchi-shogirdni iqtidorini aniqlash uslublari?
2. Ustoz-shogird an'analari haqida niamlarni bilasiz?

## **Topshiriq:**

1. O'quvchilarni iqtidorini o'rganish, aniqlash bo'yicha aniq uslublar tayyorlab kelish.
2. Ustoz-shogird an'anasi bo'yicha seminarga tayyorgarlik ko'rish.

## **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. H.Yo'ldoshev. "Ustoz va shogird odobi" O'zbekiston 2005
2. H.Abdukarimov. "Kasbiy pedagogika" T.:O'qituvchi 2010.

**Tayanch iboralar:** *iqtidor, ustoz-shogird, an'ana*

## **11-12-DARSLAR: Ekspozitsion tuzilmalar. Ohang, ibora va jumla mavzu sifatida. Davriya.**

Ekspozitsion tuzilmalar, ya'ni ohang, ibora, jumla musiqiy asarni yaratishda muhim ahamiyatni kasb etadi. Aynan shu tuzilmalar asar asosini yaratishga va uning keyingi rivojini ta'minlashga xizmat qiladi.

Nazariy nuqtai nazardan ohang va jumla bir-biridan keskin ajralmaydi. Ularni bir turkum sifatida ko'rib chiqish mumkin. **Ohang** ham, **ibora** ham bir xil vazifaga ega bo'lib, **badiiy obrazning ma'lum bir o'ziga xos qirrasini aks ettiradi**. Ohang va ibora shaklning tuzilishida ekspozitsion holatini o'zida namoyon etsa-da, ifodalagan mazmunni umumlashtirib berolmaydi. Bir paytning o'zida bitta ohang yoki bitta iboraning o'zi ular asosida nafaqat cholg'u yoki vokal asarning bo'limi, balki butun asarni tuzish uchun ham kifoya qiladi.

Mavzuning tuzilishida ohang va iboraning ketma-ket kelishi qonunlari bilan ajralib turadi va eng oddiy hajmli tematik tuzilmani paydo qiladi. Bunga davriylik, jamlanish, parchalanish va to'xtalib parchalanish kiradi.

**Davriylik** tizimi ikki yoki bir nechita bir xil ohang va ibora davomida shakllanadi. U xalq musiqasi uchun xos (ayniqsa a+a<sub>1</sub>, v+v<sub>1</sub> kabi juft davriylik).

**Jamlanish** – ikki yoki bir nechita katta bo'lмаган va undan so'ng nisbatan rivojlantirilgan tuzilmaga ega bo'lgan tizimni o'zida namoyon etadi. (2+2+4; 1+1+2; 3+3+6 va h.z.) Jamlanish tizimi dinamik rivojlanishi bilan ajralib turadi va musiqiy asarning turli qismlarida uchraydi (ko'pincha mavzu bayon etilishi boshida).

**Parchalanish** – jamlanishga teskari bo'lgan tizim bo'lib, rivojlantirilgan tuzilmadan so'ng bir nechita ikki yoki undan ko'p kichik tuzilmalarning ketma-ketligini o'zida namoyon etadi (4+2+2; 2+1+1 va h.z.) mavzuni bayon etishda parchalanish valsda, ko'pincha shaklning o'rta qismlarida tematik materialning rivojlantirish tizimi sifatida uchraydi.

**To'xtalib parchalanish** – eng rivojlangan tizim bo'lib, parchalanish va jamlanishning moslashuvini o'zida namoyon etadi (2+2+1+1+2).

Parchalanish va jamlanish jadal rivojlanuvchi bo'lishi mumkin. Rivojlanuvchi va parchalanish va jamlanish odatdaqayta ishslash qismlarida va bog'lovchi partiyalarda qo'llaniladi.

**Jumladan** boshlab musiqiy shakl ritmik ohangli va garmonik kadentsiyalar bilan boyitiladi. Bunday boyitilish natijasida musiqiy tuzilma yaxlitlikni kasb etadi

va qo'shimcha mazmun ahamiyatiga ega bo'ladi. Jumlanı yakunlaydigan va o'zida savol, yoki tasdiqlashni namoyon etadigan kadentsiyalar mavzuiy tuzilma sifatida qo'llanilishi mumkin.

Jumlanı tashkil etish uchun kamida ikkita ibora, ba'zida esa undan ko'proq iboralar talab etiladi.

Mustaqil shakl sifatida jumla faqat kichik asarlarda – tuzilishi ko'p marotaba takrorlanishdan iborat bo'lgan asarlarda uchrashi mumkin.

Dastlabki yoki boshqa tonallikkagi kadentsiya bilan yakunlangan, nisbatan rivojlangan va tugallangan musiqiy fikrga **davriya** deyiladi. Davriya shakli – mustaqil va tugallangan, ekspozitsion vazifasimavzuni bayon etish bilan bog'liq bo'lgan tizim birligidir. Davriya uchun kuychan mavzuli birlik xarakterlidir. Klassik shakllarda davriya tizimlashning, tuzilishning asosiy o'lchov birligi hisoblanadi. Chunki davriyadan keyin keladigan barcha shakllar davriyalarning soni bilan o'lchanadi.

Davriyani o'rganish va unda ijod qilishni mashq qilishda bu shaklning kichik bo'lsa-da qanchalik ahamiyati kattaligini, musiqiy asar shaklini belgilabberuvchi xususiyatlari haqida fikr yuritish va ularni mashqlarda sinab ko'rish maqsadga muvofiqdir.

### Savollar:

1. Ekspozitsion tuzilmalarning ahamiyati?
2. Ohang, ibora, jumlaning asar yozishdagi o'rni?
3. Davriya – musiqiy shaklning asosiylaridan biri sifatida.

### Topshiriq:

1. Ekspozitsion tuzilmalarga tavsif berish.
2. Ekspozitsion tuzilmalarning xususiyatlari haqida tushuncha berish.
3. N.Norxo'jaev fortepiano pyesalarida ekspozitsion tuzilmalarni aniqlab ko'rsatish.

### FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Dubovskiy. Garmoniya darsligi.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M.,1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *iqtidor, ustoz-shogird, ekspozitsiya, tuzilmalar, ohang, ibora, davriylik, jamlanish, parchalanish, to'xtalib parchalanish, jumla, davriya*

### 13-14-DARSLAR: Fortepiano uchun kichik kuylar yaratish

Texnologiya va bastakorlik mahorati masalalarini musiqiy san'atning g'oyaviy va badiiy vazifalari bilan chambarchas ko'rib chiqish lozim. Mahoratda hech qachon aniq me'yor yoki qonuniyat mavjud bo'lмаган. Har davr va zamonda musiqiy – tarixiy jarayondan kelib chiqqan holda bu me'yordarga turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjud bo'lган.

O'quvchi bastakorni birinchi darslardanoq bastakorlik mehnatining qat'iy me'yoriga o'rgatish, dangasalikdan qochish va har kuni ijod bilan shug'ullanishini talab qilish lozim va fortepiano uchun kichik kuylar yozishdan boshlash muhimdir.

Fortepiano uchun kichik kuylar yaratishdan oldin ustoz kompozitorlarning yaratgan asarlarni tahlil qilib o'rganish, tinglash, chalib ko'rish ko'nikma hosil qiladi. Shuningdek, fortepiano uchun kichik kuylarni biron-bir aniq obraz asosida yaratish ham yordam beradi.

Ustoz kompozitorlarning fortepiano uchun yaratgan asarlarini tahlil qilgandan so'ng, o'quvchi-shogirtga 4, 8 taktlik kuylar yozib kelishni topshiriq sifatida berishdan boshlash an'ana sifatida davom etib kelmoqda. Ilk darlardan kuy yozib kelish topshirig'i o'quvchi-shogirt uchun bir-muncha murakkab bo'lishi mumkin. Shuning uchun 4, 8 taktlik kuylarni chalib ko'rsatish, ustozlarning asarlaridan kuy yo'llarini chalib, namuna sifatida tushuntirish lozim. Masalan, P.I.Chaykovskiyning fortepiano uchun "albomii"dan:

5

### "Raqs"

**Allegretto**

fortepiano uchun

R.Hamidullayev

$\text{♩} = 90$

5

Kompozitorlar asarlaridan namunalardan so'ng xalq kuylaridan namular ko'rsatish o'quvchiga xalq kuylaridan foydalanish, ular asosida variatsiyalar yozishda qo'l keladi. Masalan:

### Yallama yorim

5

Nasri segox

5

The musical score consists of two staves. The top staff is in G major (indicated by a treble clef) and 4/4 time. It starts with a dynamic of *mf*. The bottom staff is also in G major and 4/4 time. Both staves feature eighth-note patterns.

Fortepiano uchun kichik kuy yozishda, umuman asar yozishda mavzu (kuy yo'li) asos hisoblanadi. Kuy yo'li aniq va ravon bo'lishi muhimdir. Uning mazmunli, obrazli bo'lishi asarning badiiy rivojlanishi va yechimini ta'minlaydi.

Asarning kuy yo'lini aniqlab olgandan so'ng uning fakturasi shakllantirishga harakat qilinadi. Uni bir qancha variantlarda ko'rish mumkin. Buning uchun yuqorida misol keltirilgan namunalaring fakturalarini tahlil etish kifoyadir.

Piano

5

"Raqs"

**Allegretto**

fortepiano uchun

R.Hamidullayev

This section shows two staves for piano. The top staff is in G major (treble clef) and 3/4 time, starting with a dynamic of *p*. The bottom staff is in G major (bass clef) and 3/4 time. The title "Raqs" is centered between the staves. The dynamic changes to *mf* in the middle of the second measure.

Piano

*J.=90*

This section shows two staves for piano. The top staff is in G major (treble clef) and 6/8 time, starting with a dynamic of *mf*. The bottom staff is in G major (bass clef) and 6/8 time. The tempo is marked *J.=90*.

Pno.

5

This section continues the piano parts from the previous section, maintaining the same staves, key signature, and time signature (G major, 6/8).

# Prelyudiya № 4

**Allegro**

Нурали Эркаев

The musical score for 'Prelyudiya № 4' in 'Allegro' tempo. The score is divided into three staves. The first staff starts with a forte dynamic (f) and continues with eighth-note patterns. The second staff begins at measure 5, featuring sixteenth-note patterns with grace notes. The third staff begins at measure 9, with the instruction 'poco cresc.' preceding the measures.

Yallama yorim

The musical score for the section 'Yallama yorim'. It features a piano accompaniment in 2/4 time. The piano part is indicated by the label 'Piano' and consists of two staves. The dynamics 'mf' and 'p' are used throughout the section.

Fortepiano uchun kichik asar yozishda faktura, garmoniya va ritm ahamiyati katta. Garmonik ketma-ketlik, ritmik sur'atlar asarning rivoji uchun aniq va yaxlit bo'lishi lozim.

Oddiy shakldagi ushbu asarda ekspoziston qismini yozishda yuqorida ko'rsatilgan musiqiy vositalar asosiy rol hisoblanadi.

Kuy, faktura, ritm va garmoniyalar asosida birinchi jumla yozilgandan so'ng mavzu asosida ikkinchi jumla yoziladi. Ya'ni birinchi jumlaning mantiqiy davomidir. Shundan so'ng asarning o'rta qismi bastalanadi. O'rta qism asosiy kuy yo'liga nisbatan kuychan va kontrastli bo'ladi.

Misol tariqasida Rahmatillo Hamidullayevning fortepiano uchun "Raqs" asarini keltirish mumkin.

The musical score consists of four staves of piano music. Staff 1 (Treble Clef) starts with a dynamic of *mp* and a tempo of *dolce*. Staff 2 (Bass Clef) begins at measure 6. Staff 3 (Treble Clef) begins at measure 11. Staff 4 (Bass Clef) begins at measure 16. The music features various note heads, stems, and dynamics, including *mf*, *#*, and *p*.

The musical score consists of five staves of piano music. Staff 1 (treble clef) starts at measure 21 with dynamic *mp*. Staff 2 (bass clef) continues the bass line. Staff 3 (bass clef) begins at measure 26. Staff 4 (bass clef) begins at measure 31. Staff 5 (bass clef) begins at measure 36. Measure 41 concludes the score.

Bu asarning o'rta qismidan ko'rinib turibdiki, o'rta qismda faktura, garmoniya va kuy yo'llari butunlay o'zgargan, ya'ni asosiy mavzuga qarama-qarshi ravishda yozilgan. O'rta qismdan so'ng asarning reprizasi bosh mavzu asosida yozilganligini o'quvchilarga sinchiklab o'rgatish muhimdir.

Asar yozib bo'linganidan so'ng shtrix belgilari, dinamik belgilari va yana bir bor barcha shartli belgilarni tekshirib chiqish lozim. Barcha belgilar qo'yilganidan so'ng asarning ijrosini ta'minlash muhimdir. Uni ifodali etib ijro etish asarning hayotiy davomiyligini ta'minlab beradi.

Yosh bastakor talabalarga dars o'tishda ushbu asarni boshidan boshlab ijro etib, tahlil qilib namuna sifatida ko'rsatish mumkin deb hisoblayman.

# "Raqs"

fortepiano uchun

R.Hamidullayev

**Allegretto**

$\text{J}=90$



Musical score for fortepiano, Allegretto tempo (J=90). The key signature changes from G major (no sharps or flats) to A major (one sharp), then to B major (two sharps), and finally to C major (no sharps or flats). The time signature is 6/8 throughout. The piano part consists of eighth-note patterns.



Musical score page 2, measure 7. Key signature changes to E major (three sharps). The piano part continues with eighth-note patterns.



Musical score page 3, measure 14. Key signature changes to D major (one sharp). Dynamics include *mf* (mezzo-forte) and *f* (forte).



Musical score page 4, measure 21. Key signature changes to B-flat major (one flat). Dynamics include *mp* (mezzo-piano) and *f* (forte).



Musical score page 5, measure 27. Key signature changes to A major (one sharp). The piano part consists of eighth-note patterns.

2

33

40

47

53

59

65

71

77

83

89

95

101

4

107

III

*ff*

### Pyesa

X.Xasanova

Andante

7

13

A Tempo

19

24

29

34

39

45

# Prelyudiya

X.Xasanova

**Andante**

The musical score consists of six staves of music for piano, arranged in two systems. The first system starts with a treble clef, a key signature of one flat, and a 3/4 time signature. It includes measures 1 through 10, with measure 6 containing dynamic markings *p*, *Led.*, and *\**. Measures 7 through 10 feature a bass clef and a key signature of one flat. Measure 11 begins with a treble clef and a key signature of one flat, followed by a 2/4 time signature. Measures 16 and 20 show changes in dynamics from *p* to *mf*. Measure 23 concludes the piece with a dynamic of *mp*.

26

36

4 measures of music, ending with a repeat sign.

39

4 measures of music, ending with a repeat sign.

42 (8)

4 measures of music, ending with a repeat sign.

4

Tempo I

45

52

57

63

69 (8)

poco rit.

1

*8va-----*

*8vb-----*

# Fortepiano uchun Rondo

X.Xasanova

**Allegro**

1

6 (8)

12

17

22

28

34

39

44

50 rit. . . . . **Tempo I**

56 *sforzando* **ff**

62

65 *sforzando* **fff**

**Savollar:**

1. Fortepiano uchun oddiy shaklda asar yozishda kuyning ahamiyati?
2. Ohang, ibora, jumlaning asar yozishdagi o'rni?
3. Davriya – musiqiy shakldagi o'rni?

**Topshiriq:**

- 1.Odiy shaklda asarlar yozish uchun kuylar yozib kelish.
2. Ekspozitsion tuzilmalarning xususiyatlari haqida tushuncha berish.
3. N.Norxo'jaev fortepiano pyesalarida ekspozitsion tuzilmalarni tahlil qilish.

**FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Garmoniya darsligi.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M.,1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** mavzu, jumla, shakl, tuzilmalar, ohang, davriya

**15-16-DARSLAR: FAKTURA**

Bastakorlik san'atida kuy, usul, garmoniya kabi faktura tushunchasi muhim axamiyat ega. Faktura termini lotin tilidan olingen bo'lib ko'p ovozli musiqada moslash, tuzilish degan ma'nolarni anglatgan. I.S.Bax davrida xoral faktura, arpedjiosimon faktura tushunchalari qo'llanilgan.O'quvchi-shogirdlarga oddiy musiqiy tilda tushuntirganda professor O.Abdullayevaning “Bastakorlik san'ati” darsligida berilgan izohni misol keltirish mumkin: ““Faktura” tushunchasi musiqiy bayon, musiqiy tuzilish, musiqiy mato tarkibidagi ovozlarning o'zaro munosabat turlarini anglatadi. Fakturaning bir necha turlari bor”<sup>1</sup>.

Fakturaning bir nechta turlari bo'lib, ular o'zining uslubi va tuzilishi bilan farqlanadi. Ulardan monodik faktura, polifonik faktura, gomofon-garmonik, geterofonik fakturalardir.

1. Monodiya. Fakturaning bir ovozlik turi bo'lib, Grigoryan xoral, xalq qo'shiqlari kabi kuylarda xosdir.



9



2. Polifoniya. Kuyda ovozlar gorizontal ravishda mustaqil ovozlardan iborat.

<sup>1</sup> O.Abdullayeva “Bastakorlik san'ati” darslik. T.:2018

3. Gomofon-garmonik faktura polifonik fakturaning boshlang'ich turi sifatida musiqashunos olim Asafyev tomonidan tahlil qilingan. Unda ikkita qatlam mavjud. Birinchi ovoz kuy yo'li bo'lsa ikkinchi yo'li garmonik matoda namoyon bo'ladi.



4. Geterofonik faktura – kuyning bir necha xonanda tomonidan improvizastiya qilish vaqtida ovoz (ohang)larning turlicha o‘zgarib ketishi:

Musiqada fakturaning aralash ko’rinishi ham mavjud.

**Savollar:**

1. Fakturaning musiqadgi o’rnini?
2. Faktura turlari?

## **Topshiriq:**

1. R.Abdullaevning violonchel va simfonik orkestr uchun Kontsertida faktura ahamiyatini tushuntirish.
2. Turli fakturalarga namunalar izlab topish.

## **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Tyulin Yu.N. “Musiqa fakturasi va melodik figuratsiyalarni o’qitish” O’quv-qo’llanma. M.: Musiqa, 1976.
2. Tyulin Yu.N. “Musiqa fakturasi va melodik figuratsiyalarni o’qitish” O’quv-qo’llanma. M.: Musiqa, 1980.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *faktura, gomofoniya, geterofoniya, polifoniya, monodiya*

## **17-18-DARSLAR: Yordamchi tuzilmalar. Bog’lovchi, muqaddima va xotimani bastalash uslubi**

**Yordamchi tuzilmalar – bog’lovchi, muqaddima va xotima** orasida eng murakkabi bog’lovchi hisoblanadi. U shaklning bir bo’limidan boshqasiga o’tish vazifasini o’taydi. Bunday o’tishning vazifasi badiiy obraz ko’rsatiladigan yangi tematik materialni yoki o’sha tovush muhitini tayyorlashdan iborat.

Bog’lovchilar odatda turli tematik materialdan tashkil topgan rivojlangan pyesalarda zarurdir. Ular bitta mavzu takrorlanganda, masalan, band-naqarotli shaklda yoki rondo shaklida refrenlar orasida qo’llaniladi. Bog’lovchilarni sonata shakllarida bosh va yondosh partiyalar orasida, ekspozitsiya va qayta ishlash orasida qo’llaniladi, murakkab uch qismli shaklda o’rta qismining boshida va oxirida, reprizadan oldin qo’llaniladi. Aytib o’tganimizday, bog’lovchi qismni davriya va oddiy ikki qismli shakldan tashqari barcha yakunlangan pyesada qo’llash mumkin. Chunki davriya va oddiy ikki qismli shakllar obrazni bir marta ko’rsatish bilan cheklanadi.

Bog’lovchilar o’zining tematik mazmuni jihatidan oldingi yoki o’zidan keyingi mavzu bilan xarakterlanishi, yoki yangi mustaqil material asosida tuzilishi mumkin. Bog’lovchilarning hajmi bitta ohangdan bir nechita iboralargacha, jumlalargacha va modulyatsiyalangan bo’lishi mumkin. Bu asarning hajmi bilan emas balki tuzilishi bilan bog’liqdir.

Bog’lovchilar bir, ikki, uch bo’limdan iborat bo’lishi, bitta, ikkita, uchta tuzilmadan iborat bo’lishi, modulyatsiyali bo’lishi mumkin.

**Muqaddima** musiqiy shaklning mustaqil bo’limini tashkil etib, asarning asosiy mavzusini tayyorlashga yo’naltiriladi.

Muqaddima, yoki boshqacha qilib aytganda, **kirish qismini** ko’pgina musiqiy janrlarda kuzatishimiz mumkin. Xususan, kichik shakldagi vokal janrlarda, cholg’u musiqasida kichik kirish qismlari keng uchraydi. Yirik janrlar – simfoniya, opera, balet, oratoriya va kantatalarda kirish qismi – muqaddima muhim o’rin tutadi. Vokal janrlar – qo’shiqlar, romanslar, yoki opera ariyalari kichik kirish qismlariga ega bo’ladi. Bu kirish qismlari yoki, vokal ohangda, yoki jo’rovoz, yoki tonal, yoki

o'z mazmuniga ega bo'ladi. Kirish qismi asarning umumiyligi mazmuni, badiiy g'oyasi va kayfiyatini belgilab beradi. Shuni inobatga olgan holda yaratayotgan asarning umumiyligi holatini avval "gavdalantirib, so'ng muqaddimaga yakuniy chizgilar berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Xotima** – musiqiy asarning yakunlovchi qismini tashkil etadi. U asarning yoki yirik mustaqil qismining asosiy tonalligini mustahkamlaydi. Aksariyat hollarda xotima asosiy tematik mavzuni umumlashtiradi, ba'zida yangi obrazni ham tasvirlab berishi mumkin. Xotimaning mavjudligi asar yoki uning yirik bir qismiga obraz jihatidan ham, shakl jihatidan ham yakunlanganlik hissini beradi.

Bog'lovchi, muqaddima va xotimaning turli xil variantlarini ijodda qo'llash mumkin. Mazkur yordamchi tuzilmalarni bastakor yaratayotgan asarining syujet mohiyatidan, shaklining badiiy effektidan kelib chiqqan holda o'z ijodida qo'llaydi.

**Savollar:**

1. Yordamchi tuzilmalarning roli?
2. Yordamchi tuzilmalarni bastalashda tutadigan o'rni?

**Topshiriq:**

1. R.Abdullaevning violonchel va simfonik orkestr uchun Kontsertida yordamchi tuzilmalarni belgilab, ularning ahamiyatini tushuntirish.
2. Yordamchi tuzilmalarga tavsif berish.
3. Yordamchi tuzilmalarning asar yaratishda tutadigan o'rnini belgilab berish.

**FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Garmoniya darsligi.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M.,1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *bog'lovchi, muqaddima, xotima,*

## 2 – SEMESTR

### **19-20-DARSLAR: Musiqiy mavzu**

**Mavzu** bu – o’zining yakunlanganligi, esda qolishi va takrorlanganda tanib bo’ladigan musiqiy fikrdir. Mavzu bir turdag'i va kontrast ko’rinishlarda bo’ladi. Bir turdag'i mavzular biron bir elementning bir nechi marotaba takrorlanishiga asoslanadi, kontrast mavzular esa odatda ikkita (kam hollarda bir nechita) har xil elementlardan tashkil topadi. Birinchisi odatda mavzuning o’zagi bo’lib, faolligi bilan ajralib turadi, ikkinchi element esa yumshoq, lirik. Unda bosqichma-bosqich harakat ustunlik qiladi. Tuzilishi jihatdan yakunlangan mavzu odatda bir nechita jumlaga bo’linadi. Jumlalar esa o’z vaqtida ikki yoki undan ko’p ohangdan tashkil topadi.

Mavzu uzun yoki qisqa bo’lishi mumkin. Lekin u har doim shakllangan musiqiy fikrni aniq ifodalab berishi va keyingi rivojlanishni aniqlab berishi kerak.

Ba’zida talabalar ishlarida tematizmni biron bir esda qolgan ohang bilan almashishga intilish kuzatiladi. Bunday hollarda o’quvchiga mavzu deganda ko’pincha o’zakning ohang rivojlanishi tushunilsa-da, ohangning o’zigina mavzuning o’rnini bosa olmasligini, chunki **mavzu bu - ohangli - obrazli umumiylilikni** tashkil etishini tushuntirish lozim.

Shu o’rinda mavzuga oid bir nechta mavzularni misol keltirish mumkin:

**№1**

The musical score consists of two staves. The first staff begins with a G clef, a common time signature, and a dynamic marking 'mf'. It contains five measures of music. The second staff begins with a dynamic 'mp' and continues from where the first staff left off, also containing five measures. The music features various note values including eighth and sixteenth notes, and rests.

**№2**

The musical score consists of two staves. The first staff begins with a G clef, a common time signature, and a dynamic marking 'f'. It contains six measures of music. The second staff begins at measure 6 and continues from where the first staff left off, also containing six measures. The music features eighth and sixteenth notes, and rests.

№3

№4

**Milliy musiqa bastalash asoslari.** Yosh ijodkorlar O'zbekistonda musiqa bastalash san'atini o'rghanar ekan, jahon musiqa madaniyatini ifodalay olish, bu yo'naliishda ijod qila olish ta'limini o'zlashtirish qatorida milliy musiqa namunalarimizni ham o'zganishi, ularni o'z ijodida qo'llashga harakat qilishi muhimdir. Chunki har bir ijodkor o'z vatani, tug'ilgan joyi madaniyatini, xalq merosini bilmay turib shaxsiy uslubini milliy xususiyatlar bilan boyita olmaydi. Bunda albatta o'rta maxsus o'quv yurtlarida bastakorlik san'ati va milliy an'analarni o'rghanish katta o'r'in tutadi.

Milliy musiqani o'rghanish avvalombor xalq qo'shiq va laparlari, cholg'u musiqasi, maqomlar, musiqa namunalari bilan tanishish, ularni o'zlashtirishdan boshlanadi. Bu borada akademik, o'zbek musiqa san'ati darg'alaridan biri bo'lgan Yunus Rajabiy to'plagan "O'zbek xalq musiqasi" to'plamining 5 ta tomini, "Shashmaqom" to'plamining olti tomidan o'r'in olgan milliy musiqa merosimiz bilan tanishishlari katta natijalarini beradi.

Xalq orasida keng tanilgan, bugungi kunda ham xirgoyi qilib kelinayotgan xalq qo'shiqlari talaygina. Yosh bastakorni milliy merosimiz negizida tarbiyalashda, ularning ijodiga xalq merosini, shu jumladan maqomlarni singdirishda bir qator amaliy ishlar olib borish mumkin. Xususan:

- xalq kuylari (yoki maqom) ni garmonizatsiyalash,
- xaql kuylarini polifonik talqin etish;
- xalq kuylari mavzulariga variatsiyalar yozish,
- xalq kuylari mavzularini improvizatsiya tarzida yangi qirralar bilan boyitish;
- xalq kuylarini boshqa ladda talqin etish yangi-yangi qirralarini ohib;
- xalq kuylarining ritmik ko'rinishlarini o'zgartirish va h.z.

Yosh bastakorlar bilan ish olib borish jarayonida bunday yondashuv katta ijobjiy natijalarini beradi va shuning qatorida ularning fantaziyasini oshirishga

xizmat qiladi. Xalq musiqasi bilan ishlash jarayonida albatta o'qituvchi ham yosh bastakor harakatlarini nazorat qilib turishi va kerakli maslahatlarni berishi lozim. Yuqorida aytilgan so'zlarni mustahkamlash maqsadida "Yallama yorim" xalq kuyining kompozitor fortepiano uchun qayta ishlangan asarini o'quvchilarga namuna sifatida ko'rsatish o'rnlidir.

The sheet music consists of five staves of musical notation for fortepiano. The first staff is labeled "Piano" and includes a dynamic marking "mf". The subsequent staves are numbered 9, 17, 24, 30, and 37, each showing a different melodic line or harmonic progression. The notation includes various note values, rests, and dynamic markings.

44

51

57

62

67

72 rit.

78  $\text{♩} = 60$

86  $\text{♩} = 60$  accel..

94  $\text{♩} = 100$

101  $\text{♩} = 100$

106  $\text{♩} = 100$

110  $\text{♩} = 100$

**Zamonaviy musiqa bastalash asoslari.** Zamonaviy musiqa – bu serqirra va nisbiy ma’nodir. Umuman olganda, musiqa san’atida zamonaviy musiqa deb XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi ijodiy jarayonlarga aytildi. Bu yo’nalishning yorqin namoyondalari sifatida kompozitorlar A.Onegger, F.Pulenk, D.Miyo, A.Sho’nberglar, I.Stravinskiy faoliyat yuritganlar. Ularning yo’nalishlari, romantizm uslubiga qarshi harakat sifatida o’ylab topilgan yo’nalishlardan hisoblanadi. Zamonaviy musiqa ta’limoti o’ziga xos nomlanish va yo’nalishlarga ega, seriya texnikasi, dodekofoniya, atonal tizim, neoklassitsizm – bularning barchasi o’sha davr “topilmasi” hisoblanadi. Bu uslub va yo’nalishlarni o’rganish musiqa kollej va litseylarida ta’lim olayotgan yosh bastakorlar uchun murakkablik qilishini inobatga olgan holda zamonaviy musiqa haqida umumiy tushuncha va ma’lumotlar berish, musiqiy misollarni tinglash hamda kichik namunalarni yozishni mashq qilish bilan chegaralanish kifoya deb hisoblaymiz.

Zamonaviy musiqa uslubida, zamonaviy tilda ijod qiladigan bastakor klassik an’analarni to’liq o’zlashtirgandan so’ng bunga qo’l urishi tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilgan zamonaviy uslubda ijod qilgan A.Shnitkening ijod namunalaridan misollar keltirish o’rinlidir.

### 1. Uvertyuradan lavha:

The musical score consists of two staves, each labeled 'Piano I' and 'Piano II'. The tempo is indicated as 'Allegro' with a tempo marking of 'J = 132'. The key signature is one flat. The score features dynamic markings such as 'f' (fortissimo) and 'sff' (sforzando) with slurs. Above the staves, there are '15--' markings. The music is divided into measures by vertical bar lines.



2. Serenada asaridan lavha:

**(1)**

Clarinetto in Sib (ff sempre)

Violino (ff sempre)

Contrabbasso (ff sempre)

Pianoforte (tempo ff)

Perc. (2 Piatti, Tamburo Gran cassa f sempre)

**(2) Senza tempo**

Cl. (ff)

VI. (ff)

Cb. (ff)

Ph. (ff)

Perc. (Camp. f mp)

2

③

Oboe  
Violin  
Cello  
Bassoon  
Perc.

35'' 35'' 2,5''  
3'' 2,5'' 3'' 4,5''  
4,5'' 3,5'' 3'' 3,5'' 4,5''  
2,5'' 3'' 3'' 3'' 3''  
3,5'' 5'' 3''  
mf sforz.

**5**

**6** *Senza tempo*

9                    10 Senza tempo                    11 Quasi Cadenza

3. To'rtinchi simfoniyadan lavha:

4                    7                    3 Andante poco pesante

(A)

4. Uchta sahna asaridan lavha:

The image shows two staves of musical notation. The top staff is for the Soprano voice, indicated by the label "Soprano" and a soprano clef. The bottom staff is for a choir of six voices, labeled "1.", "2.", "3.", "4.", "5.", and "6.". The music is in common time. Measure 11 begins with a dynamic marking "ff". Measure 12 follows, continuing the musical line.

**Savollar:**

1. Milliy musiqada ijod qilishning ahamiyat?
2. Milliy musiqanining va bastakorlik ijodiyotidagi umumiyligi?
3. Zamonaviy musiqanining ahamiyati?
4. Zamonaviy musiqa uslublari?
5. Zamonaviy musiqa bastakorlik ijodiyotidagi ahamitiyati?

**Topshiriq:**

1. Milliy musiqanining bastakorlik ijodiyotidagi ahamitiatini o'rganish.
2. M.Maxmudovning "Navo" simfoniyasini tahlil qilish va maqom xususiyatlarini, uning talqin etilish uslublarini aniqlash.
3. F.Pulenknning "Inson ovozi" monooperasini tinglash vatahlil qilish.
4. D.Saydaminovaning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun "Sarob" asarini tinglash va tahlil qilish.

## **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Yu.Rajabiy. “O’zbek xalq musiqasi” 1-5 tomlar
2. Yu.Rajabiy “Shashmaqom” to’plami.
3. Shteynberg. “XX asr Fransuz musiqasi”

**Tayanch iboralar:** *xalq musiqasi, ashula, qo’shiq, lapar, maqom, garmoniya, texnika, seriya*

### **21-22-DARSLAR: O’quv jarayonini tashkil qilish**

Yangi dastur asosida bastakorlik darsini sifatli, pedagogik va metodik jixatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun, o’qituvchi ijodkor, o’z kasbini va o’quvchilarni sevuvchi yaxshi cholg’uchi, metodika va pedagogikani puxta o’zlashtirgan inson bo’lishi kerak.

Bastakorlik ta’limining milliy asosini tarkib topishida, kuy, ritm, lad va o’zbek xalq og’zaki ijodidan ham foydalana olishi zarur.

Shuningdek, halq og’zaki ijodimizning tarixi va xozirgi kun talablarini kuzatib, o’rganib borishi shart.

Chunki, bastakorlik ta’limining asosiy maqsadi o’quvchilarda “O’zbek kompozitorlik maktabi”ni tarkib rivojlantirishdir. O’qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda ko’rgazmali qurollardan, texnika vositalardan xam foydalanishi kerak. Darslarda mavzularni oddiydan murakkabga o’tish tartibi asosida o’zaro mantiqiy bir butunlikka erishish va o’qitishning rivojlantiruvchi, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish zarur.


Bastakorlik fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxminiy mavzuli ish rejasi va xar bir darsga ish rejasi tuziladi. Bunda o’quvchilarni yoshi, iqtidori, o’zlashtirishi, asar yozishga bo’lgan qiziqishi xisobga olinib, yangi dasturdan foydalanim dars strukturasi asosida tuziladi. Ba’zi asarlarni yozish uchun o’qituvchi o’quvchilarni istagi va yangi zamonaviy g’oyalari bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o’zgartirish mumkin.

Musiqa darsi asosan bir xaftada ikki soat o’tkaziladi. O’quv yili davomida esa quyidagi tartibda:

Shuningdek, xar bir o’quv yilida 3-4 ta asar yaratiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash uchun asarlar o’rgatiladi.

Ikkinci kursning 1-yarmidan boshlab, polifonik uslublardan, elementlardan foydalanim asarlar yozish maqsadlidir.

## «Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti» fanining tuzilmaviy chizmasi



**Savollar:**

1. O'quv jarayonini tashkil qilishda nimalarga etibor berish kerak?
2. Mazvularni yoritishda nimalarga ahamiyat berish lozim?

**Topshiriq:**

1. O'quv jarayonini tashkil qilishga ruhan tayyorgarlik ko'rish.
2. O'quv jarayonida o'tiladigan mavzularni yoddan bilish.

**FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Garmoniya darsligi.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M.,1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *jarayon, tayyorgarlik, dars, o'quvchi*

**23-24-DARSLAR: Estrada musiqasini bastalash asoslari**

Estrada musiqasi bugungi kunda keng tarqalgan va rivojlangan janrlardan hisoblanadi. Bu janr klassik musiqaga nisbatan yengil va xalqqa yaqin bo'lganligi uchun keng doiradagi tinglovchilar tomonidan yengil va yaxshi qabul qilinadi. Estrada musiqasiga professional yondashadigan bo'lsak, bu janr ham o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. Bu qiyinchiliklar zamonaviy garmoniya, faktura xususiyatlari, tembr va elektron cholg'ularga bo'lgan qiziqishning quchliligi bilan xarakterlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Estrada musiqasida ijod qilmoqchi bo'lgan yosh bastakor garmoniya qonuniyatlarini,akkord, sepakkord, tonalliklarning og'ishma va modulyatsiya qilish qonuniyatlarini yaxshi bilishlari lozim. Qo'shiq janrining shakli, tuzilishi, aylanmalari haqida bilishlari, estrada cholg'u musiqasini yaratish maqsadida bo'lgan yosh bastakorlar esa cholg'u musiqasi yo'nalishlari, janr va shakllari milliy va yevropa uslubidagi bayon etish xususiyatlari mavjudligi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Bu ma'lumotlarni o'qituvchi guruh tinglovchilariga bosqichma-bosqich tushuntirib berishi va ma'lum misollar asosida o'z fikrini tasdiqlashi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Nurali Erkayev – "Lola" qo'shig'i.

**Moderato**

The musical score consists of eight staves of music. The top two staves are for the piano, showing chords and bass notes. The bottom six staves alternate between the voice (soprano) and the piano. The vocal parts include lyrics in Russian and English. The vocal entries begin at measure 17 and continue through measure 39.

**Lyrics:**

- Measures 17-20: Ba-hor kúk-si - da-gi      kú-ésh - san lo - la      lo - la      lo - la      lo - la
- Measures 24-27: Ba-hor kú-zí - da-gi      kúz ésh-san lo - la      lo - la      lo - la      lo -
- Measures 32-35: la      Кор-лар- нинг и - зи-га      со-кил - ган      ко - ним      ба-хор      ба-гри- да - ги      бар-дош
- Measures 39-42: сан ло - ла      Кор-лар-нинг и-зи-га      со-чил - ган      ко - ним      ба-хор      ба-гри - да

- ги бар-дош-сан ло - ла  
 Ло ла ке-ли-шиング ку- вонч-дир ке-ти-шиング но-ла

53  
 ло - ла ох бун - ча кис - ка-дир ум-ри-миз ло - ла ло - ла кү-зим - га сур - та-йин

60  
 күк-сим - га бо-сай ло - ла ло - ла ло - ла

Nurali Erkayev – “Assalom Navro’z” qo’shig’i:

**Allegro**

8

Хуш келдинг о-ки-бат

Fm5 - G9 C

16

ме-хр ай-йо - ми ас-са-лом ян-ги кун ас-са-лом на-вр-уз Буд-дус-лик ю-ши-ти тинч-лик са-ло - ми ас-са-лом

F Dm7 G C F

26

ян ги кун ас-са-лом на-вр-уз Са-хо - ват бел-бо-гин бо-глай-ди дех-кон дун-ё бог

Dm7 Am7 Dm7 Am7

35

бўл-син деб тер тў-кар бог - бон у-лар- дан иб-рат ол эй дўст қа-дрон ас-са-лом ян-ги кун ас-са-лом Нав-руз

Dm7 G7 F+7 Dm7 G9

46

Кал-ди-р гоч со-гин-чин ис- хо - ри сен- да ко - ра кўз тур-на-лар

C G C

Estrada san'atining musiqasini sahnaga olib chiqishda aranjirovka, ya'ni kuyni bezash – katta o'rinni tutadi. Mana shu haqida ham o'quvchilarga ma'lumot berish lozim bo'ladi.

#### Savollar:

1. Estrada musiqasining bastakorlik ijodidagi o'rni?
2. Estrada musiqasining janr va shakllarini tavsifi?

#### Topshiriq:

1. D.Omonullaevning "Yomg'ir yog'di" estrada qo'shig'ini tinglab tahlil qilish.
2. A.Rasulovning "Dilorom" estrada qo'shig'ini tinglab tahlil qilish.
3. "Bitlz" guruhining qo'shiqlarini tinglab tahlil qilish.

#### FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1. Konen. "Amerika musiqasiga yo'l".
2. Shteynberg. "XX asr fransuz musiqasi"

**Tayanch iboralar:** *estrada, qo'shiq, cholg'u musiqasi, aranjirovka, garmoniya.*

## **25-26-DARSLAR: Badiiy - g'oyaviy tarbiya masalalari. Badiiy g'oya. Musiqiy til. Vokal janrlar ahamiyati**

Bastakorlik ta'limotida sinfdagi jamoa katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy asarlarni birgalikda chalish va tinglash, kursdoshlarning asarlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, tahlil qilish, o'quvchilarni ijod bo'yicha qiziqtadigan badiiy g'oya, san'atdagi yangiliklar, mahorat, klassik meros, o'ziga xos ijod turlari, musiqiy til kabi savollarni o'qituvchi bilan muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish, – bularning barchasi o'quvchi ongini rivojlantirish, bilimini oshirish, badiiy didini shakllantirish uchun haqiqiy muktab vazifasini o'taydi.

O'quvchilar yaratgan musiqiy asarlarda aksariyat hollarda g'oyaning noaniqligi va o'ylamaslik bilan bog'lik kamchiliklar uchrab turadi. G'oyaning umumiyligini ta'minlovchi talablardan biri shundaki, har bir yaratilayotgan asarning (ayniqsa yirik asarda) musiqiy-dramatik rivoji tanlangan tematik materialning nafaqat ichki xususiyatlari, balki asarning yetakchi g'oyasini tasdiqlash bilan ham bevosita bog'liq bo'lishi lozim.

Ba'zi yirik janrdagi asarlarda to'g'ri tanlangan va qiziqarli yechimga ega bo'lgan badiiy g'oyaning yo'qligi, fikr va dramaturgiyaning sustligi asosiy aniq obraz va asosiy g'oyani rivojlantirishni emas, balki musiqali shaklni to'ldirish (allegro, skertso, adajio va final) taassurotini beradi.

Har bir yirik asar bastakorning **badiiy g'oyani** chuqur o'ylashi va his etishi natijdasida yaratiladi.

G'oya va dramaturgiyaning yaxlitligini yorqin namoyon etuvchi, tasvirlanadigan obrazlarning chuqur ochib berilishini, asosiy badiiy g'oyaning mohirlik bilan ochib beruvchi asarlarni musiqa san'atida ko'p ko'rishimiz mumkin. (masalan, S.Prokofyevning 5- simfoniyasi, D.Shostakovichning 5-simfoniyasi). Ijodiy g'oyani talqin etish nuqtai nazaridan bitta she'riy matnga murojjat qilgan bir nechita kompozitorning asarlarini (Glinka, Balakirev, Rimskiy-Korsakov, Lyadov va Raxmaninovlarning “Ne poy krasavitsa pri mne” romansi) yoki bitta mavzuga yozilgan turli kompozitorlarning simfonik asarlarini (Listning “Gamlet” simfonik poemasi, Chaykovskiyning “Gamlet” uvertyura-fantaziysi, Shostakovichning “Gamlet” spektakliga musiqa) taqqoslash juda qiziqarlidir.

Bastakorning badiiy g'oyasiga dasturiylik va syujetli obrazlar ko'rinishi katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatdan ko'pgina klassik bastakorlar nafaqat vokal asarlarini, balki cholg'u asarlarini ham dasturiy nom bilan ataganlar.

Bastakorlikni boshlagan yosh ijodkorda hayotga ijodkorona yondashishni, o'zida ijodiy xususiyatni saqlab turishni o'rgatish kerak. Ijodkor yaxshi eshita olish va yaxshi ko'rish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Uning ta'sirchanligi hayotdagि turli holatlarni his qilishga yordam beradi. Bunday bastakorning musiqasi har doim ona tabiatni, xalqi hayoti, uning musiqiy va so'lovchi ohanglari bilan bog'liq bo'ladi.

Klassik musiqadagi ko'pgina asarlar badiiy g'oyaning chuqurligi musiqiy obrazlarda tabiatning go'zalligi, xalq hayotining manzaralari va qahramonlarining obrazlarini shoirona tasvirlab berish bilan bog'liqidir. Tabiat ovozlari Betxovenning 6- simfoniyasida va Chaykovskiyning “Qishki orzular” simfoniyasida, Rimskiy-

Korsakovning “Qorqiz”, “Pskovityanka”, Shumannning “O’rmon sahnalari” asarlarida eshitiladi.

Har doim ham har bir mavzu, har bir obraz doirasi ijodkorni bir xilda jalg eta olmaydi. Xuddi shunday hamma janr yo’nalishlari ham uning ijodiy shaxsiyatiga yaqin bo’la olmaydi. Faqatgina o’ziga “yaqin mavzu” ijodkorda ma’naviy kuchini to’liq to’play oladi, ijodiy g’oya va fantaziyasining erkin harakatlanishiga yo’l ochadi. Ijodkor, shu jumladan boshlayotgan bastakor ham har bir ishi bilan qiziqishi, uni yaxshi ko’rishi va o’z g’oyasiga ishonishi lozim. Aks holda ijodi samarasiz bo’lishi mumkin.

O’quvchi bastakor uchun xox kichik, xox katta janrda bo’lsin, unga xos va mos bo’lgan vazifani tanlashda o’qituvchi juda ehtiyyotkorlik bilan yondashishi lozim.

Mavzuni tanlash o’quvchining hayotiy va madaniy doirasi bilan chambarchas bog’liq bo’lishi lozim. Ta’lim muassasasida o’qib yurgan davrida turli obrazli muhitni, emotsiyal xarakterni – epik, lirk, dramatik holatlarni asarlarida tasvirlashga harakat qilishi lozim. Ijodda janr xususiyatlariiga bo’lgan yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi o’quv yillarida o’quvchiga barcha janrda vazifa berish lozim. Yuqori kurslarda esa asta-sekin o’quvchining o’ziga xos bo’lgan, u moyil bo’lgan janr yo’nalishi asta-sekin namoyon bo’lib keladi.

Umuman olganda, janr xususiyatlari va ijodiy yo’nalish masalasi juda murakkabdir.

Bastakorning ijodiy uslubini shakllantirish jarayonida birinchi o’rinni egallovchi **musiqiy til** kuy, garmoniya, polifoniya, kolorit va h.z.larni o’zida mujassamlaydi. Bunda eng ifodaviy vosita sifatida ohang-kuy yetakchi ahamiyatni kasb etadi.

**Musiqiy til** bu - nutq bo’lib, uning vositasida bastakor o’zining ijodiy g’oyasini tinglovchi diqqatiga yetkazadi. Musiqiy til faqatgina g’oyani ifodalovchi vosita bo’lsa-da, kompozitsion shaklga o’xshab ijodning mazmuni bilan belgilanishi lozim. Uning musiqada ahamiyati katta bo’lib, ma’lum ma’noda kompozitorning uslubini va ijodiy qirrasini xarakterlaydi.

Bastakor zamonaviy mavzuga dus kelgan va yangi, zamonaviy obrazni yaratish vazifasini bajarayotganda musiqiy til va ifodaviy vositalarni tanlash masalasi murakkablashadi. Bunday asarlarda vaqt his etilmasa, asarning musiqiy til to’liq o’tmishdan olingan bo’lsa, uning obrazli va badiiy yechimi to’laqonli ishonarli bo’lmaydi.

Har bir davr san’atda yangi obrazlar, ifoda vositalari va uslublarni yaratadi. Shuning uchun yosh bastakorlar zamonaviy xalq ijodiyotini, an’anaviy va zamonaviy chet el, rus va o’zbek musiqasini o’rganib, o’z musiqiy tillarini garmonik, melodik va polifonik vositalar bilan boyitishlari zarur.

Musiqiy tilning ohang jihatdan yangilash va boyitish juda muhim hisoblanadi. Ohangni tanlash va ularni o’z ijodida badiiy qo’llash bastakorning rivojlanishi uchun kerakli bo’lgan vazifalardandir.

O’zbek kompozitorlari ijodida o’z ifodasini topishi lozim bo’lgan ohang negizi qanaqa? Bunda biz musiqada xalqchillik va yosh bastakorlarning ijodida milliy negiz masalasiga yetib kelamiz. Aksariyat hollarda musiqa amaliyotida xalqchillik

tushunchasi tor va sodda ma'noda beriladi: haqiqiy xalq kuylarini iqtibos sifatida qo'llagan musiqa ruhan xalqchil hisoblanadi. Xalq qo'shiqlarini to'liq iqtibos qilib olish emas, balki ulardan melodik obrazlarni tanlab olish yaxshiroq samara beradi.

Agarda bastakor uni o'z ijodiy individualligidan kelib chiqqan holda o'zgartira olsa, xalq ohangining ta'sirida qolmasdan, u orqali yangi, betakror badiiy obraz yarata olsa o'zining musiqiy tilida xalq ohanglariga tayanishi mumkin va kerak.

Musiqiy tilning yuqorida aytib o'tilgan barcha masalalari bastakorlik sinfi rahbari oldida turgan muammolar bilan, didni shakllantirish muammosi bilan bevosita bog'liq.

Yosh bastakorning didini rivojlantirishga yordam berish mumkinmi? Albatta mumkin. Faqat unga bu borada nafaqat tarbiya, balki o'z-o'zini tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Bastakorlikni o'rganish darslarida ilk bosqichlardan boshlab o'quvchini tinglagan musiqasi haqida o'z fikrini aytishga, o'zining badiiy baho berishlariga izoh berishni, badiiy ko'rinishlarga salbiy munosabatni bildira olishga o'rgatish lozim.

**Vokal janrlar** muhitida ish olib borish odatda o'qish tizimining boshidan oxirigacha olib boriladi va bunda vokal musiqaning barcha turlari – qo'shiq, romans, xor, yirik vokal janrlar – kantata va oratoriyalar, operalar o'rganiladi. Vokal musiqa yosh bastakorning ijodini zamonaviy va dolzarb mavzularga yaqinlashtirib, ularni aniq g'oyaviy va obrazli vazifalarni yechishga undaydi.

Vokal janrlarga murojaat qilish o'quvchining ifodaviy va ravon kuyini shakllantirishga, melodik boshlanish yetakchi o'rin kasb etishi haqidagi fikrni ongida mustahkamlaydi. O'quvchi – bastakorni tarbiyalashda buning barchasi vokal musiqa ahamiyatini yanada oshiradi va ulardan barcha kurslarda vokal janrlarda faol ijod qilish kerakligini aytib turadi. klassik musiqalarning badiiy namunalarida o'quvchilarga qo'shiq, romans, vokal asarlar va operalar misolida deklamatsion va kantilenali kuylashni qo'llanilishiga misol ko'rsatish lozim.

O'quvchi-bastakorning vokal vazifalar ustida ishlashi ma'lum ma'noda opera janrini o'rganish uchun tayyorgarlik sifatida ko'rish mumkin. Shuning uchun klassik va zamonaviy shoirlar matnlarigaromans, qo'shiq yoki qo'shiqlar turkumi, xor "a kapella" yozishdan tashqari kichik ariozo, rivojlantirilgan tvokal monologlar, turli ovozlar uchun duetlar va opera ansambllarini yozishni tavsiya qilish mumkin. Tahlil uchun Shubertning "O'rmon podshosi", Glinkaning "tungi kuzatuv", Shubert, Shuman, Rimskiy-Korsakov, Metner va boshqalarning vokal turkumlarini tavsiya qilish mumkin.

### Savollar:

1. Badiiy g'oyani o'quvchilarda tarbiyalash va shakllantirish uslublari?
2. Yosh bastakorlarda musiqiy til haqidagi tushunchani mustahkamlash

### Topshiriq:

1. Turli janrdagi xalq musiqalarini – yalla, lapar, qo'shiqlar, ashulalarni eslash va notaga tushirish.

2. O'zbekiston kompozitorlari vokal tarkumlari ro'yxatini tuzish.

### **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Garmoniya darsligi.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M., 1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *g'oya, badiiy g'oya, musiqiy til, vokal janrlar*

### **27-28-DARSLAR: Kuyni garmoniyalash**

**Kuyni garmoniyalash** – ma'lum garmonik qonun-qoidalar asosida shakllangan kuyni ko'p ovozlik ravishda tuzshdir. Monodiyadan farqli o'laroq ko'p ovozli musiqaning barcha uslub va janrlarida qo'llaniladi.

XVII asrning ikkinchi yarmida rus cherkov musiqasida monodiyali kuylarni ko'p ovozli qilib, qayta ishlab kuylash asosiy shaklga aylangan. Bunda kuyni garmoniyalash eng oddiy ko'rinishdan boshlamgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Monodik kuy yo'lni, ya'ni qo'shiqni boshqa ovozlar ham so'zlari bilan to'xtamasdan ijro etishgan bo'lib, garmonik qonun-qoidalar asosida avvaldan tayyorlangan tuzilmalar kuylangan. Bu uslub keyinchaik XX asrga kelib o'zining turli janrlarga ko'ra nomlangan (Partes kuylash yo'li).

Yosh bastakorni tarbiyalashda avval kuy yaratib olingandan so'ng, kuyni garmoniyalash bastakor tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatni kasb etadi. Aynan garmoniya musiqa madaniyatida yetakchi o'rinni egallaydi.

O'quvchi yaratgan musiqiy kuyning yakunlanganligi, tuzilishining aniqligi va ixchamligi, ohangining yaxlitligi garmoniyalashda qulayliklar beradi. Garmoniyani rivojlantirishda tovushlarning tuzilishi, harakatning yo'naliishi, harakatning sakrash yoki ravnligi muhim sanaladi.

Kuyni garmoniyalashda o'quvchining garmonik mashqlar bajarishi qo'l keladi. Birma-bir qo'shib borish kabi oddiy uslubdagi mashqlar qo'l keladi deb hisoblayman:

Piano

4/4

6

2/4



Garmoniyaning ifodaviy vosita sifatidagi ahamiyati juda kattadir. Yosh bastakorlar garmoniyaning barcha qirralari va imkoniyatlarini o'rganishlari lozim. O'quvchilar bilan ishslashning boshlanishida asosiy vazifa – tematizm ustida ishlaganda garmoniyaning barcha vositalaridan foydalana olishga o'rgatish. Ba'zi asarlarda musiqiy obrazni yaratishda garmonik vositalarning o'rni katta bo'ladi. Yirik janrlarda funktsional garmoniyaning dramaturgik vositalaridan foydalanish ham muhim o'rinni tutadi.

Yosh bastakorlarni jo'shqin va yorqin yozish uslubiga jalb etish bilan bir qatorda, ularning garmonik fantaziyasini boyitish va kengaytirish, yangi va qoliplanmagan garmonik vositalar topishga yo'naltirish lozim. Garmonik fantaziyanı boyitish uchun ladning barcha pog'onalarining qo'llanilishiga erishish lozim. Chunki bu bastakorning garmonik tafakkurini erkin qiladi.

### **Savollar:**

1. Garmonik vositalarning bastakorlik ijodida ahamiyati?
2. Garmonik mashqlar tavsifi?

### **Topshiriq:**

1. Garmonik mashqlar bajarish.
2. O'zbek kompozitorlarining asarlarida garmonik tuzilmalarni ko'rib chiqish.
3. Zamonaviy kompozitorlar asarlarida garmonik matoning ahamiyatini ko'rib chiqish.

### **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Dubovskiy. Garmoniya darslari.
2. Mazel L.A. Musiqiy asarlarning tuzilishi. M., 1979.
3. Messner Ye. Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** *garmoniya, tuzilma, lad, mashq.*

## **29-32-DARSLAR: Musiqiy shakl haqida tushuncha. Musiqiy shaklga oid umumiy masalalarni o'rganish**

Har bir shakl mavzu va uni alohida tashkil etuvchi unsurlardan iborat bo'ladi.

**Badiiy shakl** voqeylekning obrazli ko'rinishi, ifodaviy imkoniyatlar orqali g'oya mazmunini ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Muhim ifodaviy vositalar qatoriga kuy, garmoniya, faktura, ritm va bsh.lar kiradi. Ifodaviy vositalarning hamjihatligidan musiqiy asarning badiiy emotsiyalarni shakllanadi.

Musiqaning tarixiy rivojlanishi jarayonida tovush san'ati tabiatiga singgan o'zgarmas tamoyillarga asoslangan qat'iy shakllar ishlab chiqilgan. Bu tamoyillar ikkita asosiy – o'xshashlik va qarama-qarshilik tamoyillariga olib keladi. Ulardan shaklni tuzuvchi barcha texnik uslublar – takroriylik, variatsiyalash, mavzuni qayta ishlash, reprizaviylik va h.z. kelib chiqadi. Bu usullarning barchasi bizning ongimiz qonuniyatlarining aksini namoyish etadi va o'z davri san'atining o'ziga xos qirralariga ega bo'ladi. Ular professional san'atning paydo bo'lishidan ancha oldin aniqlangan bo'lib, ildizi xalq ijodiyotiga borib taqaladi.

**Musiqiy shakllarning** ko'pgina turlari turli tarixiy davrlarda ko'rinishini o'zgartiradi va kompozitorlik amaliyotida turlicha o'zgaradi.

Alohida shakllarni keng qo'llash ularni sxemaga aylantiradi. Shakllarning bunday sxemalari yangi mazmunda yangi ifodaviy vositalarni keltirib chiqaradi. Musiqada mazmun, boshqa san'at turlari singari musiqiy obrazning evolyutsiyasini, turli ifodaviy vositalarning o'zgarishi, o'sishi va mavjudligini ta'minlaydi.

Musiqiy obrazlar davrda rivojlanadi. Ular o'z ko'rinishi jihatdan hayotning turli ko'rinishlarini aks ettirishi mumkin. Musiqiy asarning asosida turli shaxsiy, jamoat voqealari asoslab olinishi mumkin.

Bir ovozli qo'shiqdan boshlab yirik orkestr partiturasigacha, musiqa shakl go'zalligiga intilish bilan xarakterlanadi. Shaklning mazmunga mos kelishi bastakordan ifodaviy vositalarning aniq tanlab olinishini, tuzilmaviy me'yorni, mazmunning yakunlanganligini, uslubiy yaxlitlikka rioya qilishni va tinglovchiga estetik ta'sir qilinishini inobatga olishni talab qiladi. Bundan kelib chiqib, musiqa tarixida obrazli vositalarnining, badiiy didga baho berish ham muntazam o'zgarib turadi.

Musiqiy shakl va uning alohida tashkiliy qismlari ustida ishlashda bastakor tovushning barcha xususiyatlaridan - balandligidan, cho'zimi, tembri, baland-past pardalaridan, registr koloritidan foydalanadi.

Bu barcha sifatlar uzviy yaxlitlik sifatida qabul qilinadi va serqirra musiqiy ifodaviylikni o'zida namoyon etadi. Ular lad va metr sharoitida rivojlanadi.

Musiqiy asar ustida ishlash jarayonida uchta uslub – melodik, garmonik va ularning jamlash uslublari qo'llaniladi. Shu bilan birga, turli xil vazifalarga ega bo'limlardan tashkil topgan rivojlangan shakl ustida ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Musiqiy asar oldindan tayyorlangan tematik material ustida ishlash, yoki bosqichma-bosqich "o'sish" natijasida yaratilishi mumkin.

Birinchi holatda mavzular bir-biriga bog'liq bo'lmanan holatda tayyorlanganda yordamchi tuzilmalar (muqaddima, bog'lovchi, xotimalar) ishlab chiqilgan asosiy, ekspozitsion bo'limlarga mos qilib yaratiladi.

Ikkinci holatda, biz "o'sish" uslubi deganimizda, har bir keyingi tuzilma oldingi tuzilmalar bilan chambarchas bog'liq holda, ularning davomi yoki kontrast taqqoslangan ko'rinishida yaratiladi. Aytib o'tilgan ikkala hol ham samarali bo'lib, kompozitsiyada yaxshi natijalarni beradi. Ular tanlash ijodiy individuallik bilan bog'liq. "O'sish" uslubini odatda improvizatsiya qilishga moyil bo'lgan bastakorlar qo'llashadi (Shopen, Skryabin, Raxmaninov). Materialni oldindan tayyorlash uslubiga ijodida idrok etish ustun turgan kompozitorlar qo'llaydilar (Taneev, Vagner). Bu ikki uslubni birgalikda qo'llash hollari ham kuzatilib, bunday holat musiqiy ijod uchun eng xarakterli (Betxoven, Chaykovskiy) va barcha ijod uchun xosdir.

Boshlayotgan bastakor quyidagi bosqichlardan o'tishi lozim:

Birinchi bosqich – syujet tanlash;

Ikkinci bosqich – musiqiy janr tanlash;

Uchinchi bosqich – syujet talabiga javobberadigan klassik sxema tanlash, ya'ni, shaklning umumiy rejasи;

To'rtinchi bosqich – asarni yoki oldindan tayyorlangan mavzu asosida yozish, yoki "o'sish" uslubi orqali yozish

Tavsiya etilgan rejani amalga oshirish sarf etilgan vaqtida aks etmasligi lozim; asar bir necha soatda ham, yoki bir necha kunda ham yozilishi mumkin.

Syujetni ijodiy ishslashda quyidagilar kerak:

- Obrazli kuy;
- Bu obrazga javob bera oladigan garmoniya;
- Fakturani mohirlik bilan qo'llash;
- Polifonik rivojlangan qo'shimcha ovozlar;
- Tematik materialni umumiy g'oyani dialektik rivojlantirish kabi qayta ishslash;
- Butun shaklning aniq mutanosibligi

Badiiy obrazga va syujetga muvofiq –

- kuyda ma'lum ohanglar, ritm, garmonik va polifonik holatda interval ketma-ketligi, ko'tarilish, pastga tushish va har doim unga hamroh bo'luvchi avj qo'llaniladi;
- garmoniyada mazkur obrazga xos bo'lgan lad funktsiyalari imkon darajasida keng foydalаниishi lozim;
- akkordlarning sifat tarkibini, shu jumladan konsonans va dissonanslar sonini inobatga olish muhim;
- polifonik ovozlar ritm-intonatsion jihatdan mazmunli bo'lishi lozim;
- registrlarni tanlash, ularning almashuvi va dinamika muhim ahamiyat kasb etadi;
- fakturani mohirlik bilan qo'llash lozim.

Bu omillarni to'g'ri ishlatabilish musiqaning tinglovchilarga psixologik ta'sirini kuchaytiradi.

Har bir asar qismlarning bo'g'ri bo'linishiga, barcha musiqiy vositalarning umumlashuviga muhtojdir. Bastakor ijod jarayonida avval umumiyl qilib olingan rejaning alohida unsurlariga aniqlik kiritaradi.

Asosiy (ekspozitsion) bo'limlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Masalan, variatsiyalar uchun mavzuga qayta ishlash usullarini qo'llash mumkin emas, chunkibuning ketidan qayta ishlaydigan turdag'i pyesa turkumi yotadi; raqs uchun mavzu raqsga tushadiganlarning harakatiga muvofiq faol harakatlanuvchan bo'lishi lozim va h.z.

Bastakor har bir bo'limga xos bo'lgan vazifalarni bajarilishini diqqat bilan nazorat qilishi lozim. Masalan, tematik tuzilmalar bog'lovchi yoki kirish bo'limlaridan ajralib turishi lozim, bog'lovchi va kirish bo'limlari esa yakunlovchi va kodalardan ajralib turishi kerak. Bularni hammasini tajribaviy ishlarda amalga oshirib farqlarini bilab olish mumkin. Shunga qaramasdan, ijodiy jarayon fantaziyaning erkin bo'lganidagina yuzaga kelishini alohida ta'kidlash lozim.

Yosh bastakorlar uchun ijodga yuqorida berilgan ko'rsatmalar va qonuniyatlarga amal qilib ijod qilishni boshlashlari muhimdir. Chunki, klassik negizda, yaxshi ijodiy baza bo'lgandagina, keljakda to'g'ri ijodiy jarayonga kirishib ketishi va o'zining shaxsiy ijod uslubiga va mustaqil musiqiy tiliga erisha olishi mumkin.

Mazkur mavzu doirasida yaratilishi lozim bo'lgan asarning tonal tizimi, tonal mutanosibliklar xususida, uslub haqida tushunchalar berish muhimdir.

**Klassik shakllar va sxemalar.** Klassik shakllarning kelib chiqishi 17 asrning boshiga borib taqaladi. Aynan shu davrda musiqiyifodaviylikning barcha zamonaviy xususiyatlari ega bo'lgan **gomofoniya** uslubi shakllanadi. O'sha paytda yuzaga kelgan lad tizimlarini tanlab olish bugungi kunga qadar qo'llanilayotgan yangi sintaksik shakllarning paydo bo'lishiga asos bo'lди. Buyuk bastakorlar I.S.Bax va G.F.Gendel o'zlarining dunyoviy asarlari orqali yangi sintaksik shakllardan mukammal fodalanishni ko'rsatib berdilar. Ularning ishlarini I.S.Baxning o'g'illari Karl Filipp Emmanuil Bax va Logan Xristian Bax davom ettirib, yetakchi ohangni boshqa ovozlarning polifonik rahnamoligidan to'liq ozod qildilar. Bu borada mangeym maktabi yetakchisi Ya.Stamitsning orkestr musiqasida olib borgan izlanishlarini eslash lozimdir.

Klassik davrning yetuk kompozitorlari I.Gaydn, V.Motsart, L.Betxoven san'atning badiiy syujetini yuqori ko'tardilar. Ular musiqiy shaklda to'qnashuv o'rnnini izlab topishdi. Gaydn, ayniqsa Betxoven ijodlarida to'qnashuv har tomonlama o'z ifodasini topdi. Musiqiy asarning alohida bo'limlari vazifalari aniqlandi. Repriza keng umumlashtiruvchi ahamiyatni kasb etdi; yirik shakllarda mutanosiblikka amal qilindi. Klassik kompozitorlar tomonidan davriyadan tortib opera va simfoniyagacha ishlab chiqilgan barcha shakl - ko'rinishlar gomofon uslubning sintaksik asoschi namunalari bo'lib qolaveradi.

Klassik musiqiy shaklning barcha bo'limlari u yoki bu vazifani bajaradi. Bo'limlar quyidagi asosiy ko'rinishlarga ega: birinchi ko'rinish – ekspozitsiya;

ikkinchisi – bog’lovchi; uchinchisi – muqaddima; to’rtinchisi – xotima; beshinchisi – qayta ishlovchi; oltinchisi – repriza.

O’qituvchi klassik asarlarning mazkur ko’rinishlari haida tushuncha berganda kompozitorlar asarlaridan namunalar keltirib o’z fikrini tasdiqlashi va shu tariqa yosh bastakorlarga klassik an’analarga bo’lgan qiziqish va intilishni kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Har qanday rivojlangan musqiy shakl asosiy va yordamchi tuzilmalardan tashkil topadi. Klassik kompozitorlar tomonidan musiqiy tafakkuri jarayonida ishlab chiqilgan shakl-sxemalar tovush materialini bayon etish uchun juda qulay bo’lib, muallifning syujet va g’oyasini aks ettirib turadi.

Asosiy klassik shakl-sxemalar quyidagicha shakllangan:

1. Oddiy ikki – uch qisqli;
2. Murakkab uch qisqli;
3. Oddiy rondo;
4. Sonata allegro;
5. Rondo-sonata.

Qolgan barcha rivojlangan shakllar ulardan kelib chiqqan bo’lib, mazkur asosiy shakllarning individual variantini tashkil etadi.

**Oddiy ikki qisqli shakl** – to’rtta jumladan iborat bo’lgan ikkita davriyaning taqqoslanishi asosida vujudga keladi. Bu shaklda kichik, mustaqil bo’lgan asarlar – prelyudiyalar, pyesalar, qo’shiqlar, romanslar yoziladi. Shu bilan birga ko’pincha variatsiyalarning mavzulari, rondoning refreni, qo’shiqning bandi yaratiladi. Chunki u davriyaga qaraganda rivojlov va taqqoslovchi kontrastga kengroq imkoniyat beradi. Bu shaklning negio’lari xalq musiqasida bo’lib, o’yin va qo’shiqlarga xos bo’lgan 2 qismni ( $a+a_1$ ;  $v+v_1$ ) – bandni va naqarotni solishtirish bilan bog’liqdir.

Oddiy ikki qisqli shaklda ikki qismning birligi mavzu, garmoniya, tuzilishi birligi bilan ifodalanadi. Uning 1-qismi deyarli hamisha aniq ifoda etilgan ekspozitsion tuzilmadan iborat bo’lgan davriyadan tashkil topadi. Ikkinci qism tuzilishiga qarab reprizali ( $a+a_1$ ) ( $v+v_1$ ) va reprizasiz ( $a+a_1$ ) ( $v+v_1$ ) turlariga ajraladi.

*Oddiy ikki qisqli shaklning sxemasi:*

*Reprizali:*

A	$A_1$
1-davriya	2-davriya
$a+a_1$	$a_2+a_3$
4+4	4+4

16

*Reprizasiz:*

A	B
1-davriya	2-davriya
$a+a_1$	$B + B_1$

4+4	2+2+4
-----	-------

**Oddiy uch qisqli shakl** deganda birinchi qism, o’rta qism va reprizadan tashkil topgan simmetrik shaklga tushuniladi. Oddiy uch qisqli shakl reprizali ikki qisqli shaklga yaqindir. Dastlabki davriyadan keyin keladigan rivojlantiruvchi oraliq va yakunlovchi repriza 2 ta alohida mustaqil davriyaga aylansa, butun shakl 3 qisqli bo’lib qoladi. Aniq ifodalangan oraliq va repriza 3 qismlikning asosiy belgisidir. Shu bilan birga, dastlabki davriyaning reprizada to’liq takrorlanishi shaklni oddiy uch qisqli deb aniqlashga asos beradi. Unda oraliqning hajmi ahamiyatga ega emas.

Oddiy 3 qisqli shakl raqs musiqasida, marshlarda, qo’shiq va romanslarda keng qo’llaniladi.

***Oddiy uch qisqli shaklning ko’p uchraydigan sxemalari:***

**A)**

	1-qism A	2-qism A <sub>1</sub>	3-qism A <sub>2</sub>
Ekspozitsiyali davriya	Erkin oraliq ko’rinishidagi davriya	davriya-repriza	
8	8	8	

**B)**

	1-qism A	2-qism B	3- qism A <sub>1</sub>
Ekspozitsiya davriyasi	yangi mavzudagi o’rta davriya (trio)	reprizali davriya	
8	8	24	8

**V)**

	1-qism A	2-qism B	3- qism A <sub>1</sub>
Ekspozitsiya davriyasi	Birinchi qism mavzu asosida qayta ishlanadigan qism	reprizali davriya	
8	8	24	8

**G)**

	1-qism A	2-qism B	3- qism A <sub>1</sub>
Ekspozitsiya davriyasi	yangi mavzu asosida qayta ishlanadigan qism	reprizali davriya	
8	8	24	8

Murakkab deb biz qismlari (yoki juda bo'limganda boshidagi qism) oddiy shakllarda bayon etilgan shallarga aytamiz. Shuning uchun murakkab shakllar oddiy shakllarga qaraganda balandroq pog'onani egallaydi. Estetik jihatdan murakkab shakllarni vazifasi o'z ichiga kuchli, keskin rangba-ranglikka ega bo'lgan kontrastlarni sig'dira olishi va yetarlicha yaxlitlikni va katta qismlar ichida rivojlovga sharoit olishidadir.

**Murakkab uch qismli shakl** deb hamma qismlari yoki juda bo'lmasa birinchisi davriyadan kattaroq bo'lgan shaklda yozilgan shaklga aytildi. Aksariyat murakkab 3 qismlar asosida 2 ta asosiy qismlarning kontrast jihatdan solishtirilishi va birinchi qismning reprizali takrorlashi yotadi.

Quyida ko'p uchraydigan murakkab 3 qismli shakllarning sxemasi beriladi:

A)

1-qism A Oddiy 2 yoki 3 qismli shakl 16-24	2-qism B oddiy 2 yoki 3 qismli shakl 16-24	3-qism A <sub>1</sub> repriza 16-24
48-72		

B)

1-qism A Oddiy 2 yoki 3 Qismli shakl 16-24	2-qism B davriya 16	3-qism A <sub>1</sub> repriza 16-24
48-64		

V)

1-qism A Oddiy 2 yoki 3 qismli shakl 16-24	2-qism B Keng qayta ishlangan tuzilma 16-24	3-qism A <sub>1</sub> repriza 16-24
48-72		

Murakkab 3 qismli shakl haqida tushuncha berganda uning kelib chiqish tarixi, qismlarning tonal, garmonik rang-barangligi, boyituvchi xususiyatlari haqida ham ma'lumot berib o'tish lozimdir.

**Rondo shaklida** bitta asosiy mavzu ko'p marotaba takrorlanib har gal turli mustaqil epizodlar bilan almashadi. Rondo shaklining asosiy belgisi uchun qismlari joylashishidadir.

Refren	1-Epizod	Refren	2-epizod	Refren	3-epizod
A	B	A <sub>1</sub>	C	A <sub>2</sub>	D
8	8	8	8	8	8

48

Sxemadan shu aniq bo'ladiki, mazkur shaklda reprizalik tamoyili ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi va u kontrast taqqoslash uslubi (tashqi kontrast) bilan birga qo'shilib keladi. Shunday qilib, oddiy rondo ko'p marotaba reprizalik takrorga va ko'p marotaba kontrast taqqoslashga asoslanadi. Refren bog'lovchi, birlashtiruvchi omil bo'lib gavdalanadi. Shuning uchun ham bu shakl mazmunan bir g'oyani yoki bitta fikrni takrorlab isbotlash kerak bo'lgan asarlarda qo'l keladi. Rondoda qismlar soni 15-17 tagacha yetishi mumkin, lekin 5 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Rondo shakli aslida naqoratli xorovod qo'shiqlaridan, qadimgi raqslardan kelib chiqqan. Naqarotli qo'shiqdan rondoni farqi shundaki, u takrorlanadigan qismdan – naqarotdan (refrendan) boshlanadi. Rondo atamasi “davra” – xorovod, doira yegan ma'noni anglatadi. Bu atama bilan ham musiqiy shakl, ham janr belgilanadi.

Klassik rondoning belgilari:

- Qismlar yiriklashmagan: refren ko'pincha oddiy 2 va 3 qismli (yoki davriya) shaklida yoziladi;
- Tematik kontrast oxiriga qarab kuchayadi;
- Tonalliklar plani kanonizatsiyalashadi (T-D-T-S-T);
- Epizoddan refrenga bog'lovchi bo'limlar orqali o'tiladi;
- Shakl yaratilishida kodani yoxud kodani vazifasini o'ziga olgan oxirgi refrenning ahamiyati kuchayadi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida rondo shaklining ham o'ziga xos tarzda o'zgarishlarga duch kelganligi, tonal o'zgarishlar keng qo'llanilganligi xususida ham o'quvchilarga ma'lumot berish tavsiya etiladi.

**Variatsiya shakli.** Musiqiy shakllarning tuzilishida eng oddiy tamoyil – takrorlash tamoyilidir. Shu bilan birga, jahon musiqa san'atida aniq takrorlashga qaraganda o'zgartirish, yangilash bilan bog'liq bo'lgan takrorlanish kengroq tarqalgan. Xalq musiqasida va uni ta'sirida professional kompozitorlar musiqasida takrorlash tamoyili musiqa shakli tuzilishining eng asosiysi deb hisoblanadi. Va bu tamoyilga variatsiya deyiladi.

**Variatsiya** deb mavzu bayoni va uning bir necha marotaba o'zgartirib takrorlanishiga aytildi.

Variatsiyaning sxemasi: A A<sub>1</sub> A<sub>2</sub> A<sub>3</sub> va h.z.

Variatsiya shaklida bayon etilgan asarga “mavzuga variatsiya” deyiladi. Variatsiya ham shakl, ham janr sifatida belgilanadi.

Variatsiya shaklida har bir variatsiyada bir vaqtning o’zida ham yangilik, ham bir mavzu bilan bog’liqlik namoyon bo’ladi.

Variatsiya shaklida mavzu ko’pincha birdan bir rivojlantirish man’bai bo’lib, ko’p marotaba o’zgarishlarga duch keladi.

Variatsiya mavzusini kuy jihatdan olganda u oddiy bo’lib, juda osonlik bilan tanib olinadi va esda qoladi, shu bilan birga o’ziga xos tovushlar izchilligini mujassamlaydi.

Musiqiy mavzuni variatsiyalash turli ko’rinishlarda amalga oshiriladi. Mavzu har bir variatsiyalanganda birin-ketin goh melodik bezaklar, goh ritmik o’zgarishlar, goh garmonik, goh tonal, goh dinamik o’zgarishlarga duch keladi. Shu tariqa bitta mavzu turli rang-baranglikka erishadi.

Variatsiyalarning bir nechita turlari mayjud: basso ostinato va soprano ostinato variatsiyalari, qat’iy variatsiyalar, erkin variatsiyalar, qo’shaloq va ko’p mavzuli variatsiyalar.

Variatsiyaning har bir turiga misollar keltirish yosh bastakorlar ongida shaklning puxta singishiga omil bo’ladi.


**Sonata shakli** – turkumsiz cholg’u asarlar orasida yirigidir. Sonata ham janr, ham simfonik asarlarni yaratish vositasidir. Ziddiyatlarni ko’rsatish uchun sonata shakli juda qulaydir. Hayotdagi murakkab, ko’p qirrali jarayonlarni, dramatik to’qnashuvlarni, chuqur tuyg’u va katta g’oyalarni aks etishga moslashgan janr. Sonatalilik simfonizm tushunchasiga yaqin turadi.

Sonata shakli shunday reprizali shaklki, uning **1-qismi**, ya’ni **ekspozitsiyada** har xil tonallikkagi 2 ta mavzu namoyon bo’ladi, reprizada esa bu mavzular boshqa nisbatda, ko’pincha asosiy tonallikda takrorlanadi.

O’ra bo’lim, ya’ni **2-qism – qayta ishlash qismi** – ekspozitsiya mavzularini qayta ishlaydi, tonal jihatdan noturg’un. Rivojlov o’rniga lavha (epizod) berilishi mumkin. Rivojlovsiz sonata shakli ham uchraydi. Sonatalarda muqaddima va xotima ham bo’lishi mumkin.

**3-qism** – ekspozitsiyada tonal o’zgarishlar bilan kelgan yondosh va yakunlovchi partiyalar mazmunini asosiy tonallikda takrorlaydi.

*Sonata shaklining sxemasi:*



Sonata shaklining o'ziga xos qirralari, tonal o'zgarishlarning qonun-qoidalari, kontrast mavzularning tanlanishi va ularni to'g'ri rivojlantirish haqida yosh bastakorlarga to'liq ma'lumot berish lozimdir.

#### Savollar:

1. Musiqiy shaklning tarixiy ahamiyati?
2. Musiqiy shaklni tuzuvchi vositalar?
3. Musiqiy shakllarning xususiyatlari qanday?
4. Musiqiy shakllarning mohiyatini ta'riflang?

5. Musiqiy shakllarga tavsifini ayting?
6. Musiqiy shakllarning turlarini bir-biridan farqini izohlab bering?
7. Musiqiy shakllarning o'ziga xos qirralari ta'riflang?

### **Topshiriq:**

1. Musiqiy shakl xususiyatlarini o'rganib chiqish.
2. Musiqiy shakl turlarini aniqlash.
3. Musiqiy shakllarga oida umumiy masalalarga tavsif berish.
4. Musiqiy shakllarqanday yaratilishi va tanlanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish.
5. V.Motsart, F.Shopen, P.Chaykovskiy, Mushel asarlaridan namunalarni tahlil qilib uslub qirralarini ajratish.
6. P.Chaykovskiyning "Sharmankachi kuylaydi" pyesasini tahlil qilish (oddiy 2 qism shaklga).
7. Mendelson. So'zsiz qo'shiq №27 tahlil qilish (oddiy 3 qismli shaklga)
8. Shopen. Mazurka Do major. Or.56 №2 tahlil qilish (murakkab 3 qismli shaklga)
9. L.Betxoven. Rondo Lya major tahlil qilish (rondo shakliga)
10. F.Shubert. Sonatalarini tahlil qilish.

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Tyulin Yu.N. "Musiqiy shakl" M.1965
2. Mazel. A. "Musiqiy asarlarning shakli". M.,1979

**Tayanch iboralar:** uslub, shakl, o'sish, obraz, garmoniya, polifoniya, mavzu, ritm, ohang, repriza, davriya, jumla, qism, variatsiya, rondo, sonata, qayta ishlash qismi, bosh partiya, yondosh partiya, badiiy shakl, musiqiy shakl, musiqiy obraz.

### **33-34-DARSLAR: Polifonik uslublar**

Polifonik uslublar alohida katta mavzu bo'lib, uni amaliy ish bilan birga o'tish lozim. Zero, amaliy mashqlar o'quvchining tasavvurini shakllantiradi va o'quvchilarni polifonik g'oyaga yo'naltirish uchun darsda polifonik xususiyatlarga ega bo'lgan vazifalarni bajarish maqsadga movofiq bo'ladi.

Yosh bastakorlarni tarbiyalashda to'rtta polifonik uslublarni misollarda ko'rsatib, kompozitorlarning asarlaridan namunalar bilan tanishtirish muhim.

1. Ovoz osti polifonik uslub. Bir vaqtning o'zida asosiy mavzu bilan ovoz osti kuy yo'li ham yangraydi (ushbu uslub geterofoniya tushunchasi bilan o'xshash).

Piano

2. Imitatsion polifoniya. Imitatsion polifoniyada asosiy mavzu bir ovozda boshlanib, keyin o'zgargan holda boshqa ovozlarda yangraydi. Bu uslubda asosiy mavzu bir nechta bo'lishi mumkin.

Agar asosiy mavzu o'zgarmasa kanon deyiladi. Ushbu uslub, ko'p ovozlarda mavzuning yangrashi ko'pincha fugalarda qo'llaniladi.

A musical score for piano in 4/4 time. The top staff is in G major (treble clef) and the bottom staff is in C major (bass clef). Measure 3 starts with a rest followed by a melodic line. Measure 4 begins with a forte dynamic. Measure 7 shows a continuation of the melodic line.

3.Ziddiyatli-tematik polifoniya. Ikki yoki undan ko'p ziddiyatli mavzularning bir vaqtida yangrashi bo'lib, ushbu uslub XIX asrda amaliyotda qo'llanila boshlagan.

A musical score for piano in 3/4 time. The top staff is in G major (treble clef) and the bottom staff is in C major (bass clef). Measure 5 consists of rests. Measure 6 begins with a melodic line.

A musical score for piano in 3/4 time. The top staff is in G major (treble clef) and the bottom staff is in C major (bass clef). Measure 5 consists of rests. Measure 6 begins with a melodic line.

4.Yashirin polifoniya. Yashirin polifoniya deb tematik ohanglarni asarning fakturasida yashin ravishda qo'llanishi. Ushbu uslub erkin polifonik asarlarda qo'llanilib I.S.Baxning kichik polifonik turkumlarida ham uchraydi.



O'quvchilarni polifonik g'oyaga yo'naltirish uchun darsda polifonik xususiyatlarga ega bo'lган vazifalarni bajarish maqsadga movofiq bo'ladi.

### **Savollar:**

1. Polifonik uslublarning bastakorlik ijodida ahamiyati?
2. Polifonik uslublarning tavsifi?

### **Topshiriq:**

1. Ifodaviy vositalar xususiyatlarini bir-biridan ajrata olish.
2. I.S.Baxning asarlarini tahlil qilish.
3. F.Shopenning 9-Prel'yudiyasida yashirin polifoniyanı aniqlash.

### **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Muxtarova F. Polifoniya.
2. Fedotov B. G'arbiy Yevropa polifoniysi.

**Tayanch iboralar:** *uslub, yashirin, fuga, imitatsiya, kanon, polifoniya.*

### **35-36-DARSLAR: Yangi asarlarning jonli ijrosi**

Yosh bastakorning darslar jarayonida yaratgan yangi asarining ijrosi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh o'quvchining o'z asarining birinchi ijrosini jonli ravishda tinglab ko'rish imkoniyati yaraladi. Shuningdek, kelgusidagi ijodiy asarlariga bo'lgan qizish ham aynan shu jarayonda shakllanadi. Albatta, yangi asar ijrochi uchun qulay va tushunarli bo'lishi, barcha musiqiy shartli belgilar, dinamik belgilar, shtrixlar qo'yilgan bo'lishi lozim. Asarning birinchi tayyorgarlik jarayonlarida ustozning ishtiroki bo'lishi muhim. O'quvchi asarning talqini, uning mazmun-mohiyatini ijrochiga tushuntirib bera olishi bir muncha qiyin, shu vaqtida ustoz unga namuna bo'lishi va o'z fikrlarini bildirishi maqsadlidir.

Aytib o'tish kerakki, yangi musiqiy asarni muallif o'zi ijro etishi uning mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarga yanada tushunarli bo'ladi.

Asarning har bir notasi, bo'limi vaakkordlari ustida ish olib boorish, dinamik ko'rsatmalarga rioya etishni kuzatib boorish lozim. Chunki, muallifning o'z ijodiy mahsulidan ko'ngli to'lishi kompozitor uchun ichki hotirjamlikni beradi.

**Bastakorlik va nazariyaga bag'ishlangan adabiyotlar haqida ma'lumot.** Musiqiy adabiyotlarni chuqur bilish o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham birdek muhimdir. O'quvchi yaratgan asarni tanqid qilayotganda o'qituvchi o'z fikrini yetuv musiqiy misollar bilan tasdiqlasa, uning tanqidi yanada ma'noli, aniq va ishonarli chiqadi. Klassik va zamonaviy musiqadan to'g'ri tanlangan va o'z vaqtida ko'rsatilgan misol ko'p hollarda o'quvchining ijodiy qiyinchiliklarini yendagi va uning fantaziyasiga ma'lum darajada turtki beradi.

Ishning uslubiy tomoni shundaki, har bir holatda yosh bastakorda asar yozish jarayonining biron bosqichida qiyinchilik yoki shubha tug'ilsa, bu holda o'qituvchi buyuk kompozitorlar bunday vazifalarni qanday yechganliklarini aytishi va bunga misol keltirishi lozim.

Masalan, agar o'quvchi yozayotgan asarning kodasi chiqmayotgan bo'lsa, asosiy mavzu kodada yangi ko'rinishda yangrashi mumkinligini ko'rsatib berishi lozim. (masalan, Chaykovskiyning "Romeo va Julietta"si kodasi); kodada asosiy mavzu "ochiladi" ("Karmen"dagi arfa bilan antrakti); kodada eslatma sifatida yangraydi (Chaykovskiyning 6-simfoniyasi kodasi); kodada yangi melodik mavzu paydo bo'ladi.

Talabaning ishlashi jarayonida muqaddima, mavzuning rivoji, qayta ishslash, tonal rejasini yozayotganda qiyinchilikka duch kelganida o'qituvchi shu tariqa harakt qiladi.

O'quvchilarni turli davr va yo'naliishlar musiqalarini muntazam o'rganib borish, musiqaga oid adabiyotlarni o'qish va o'zlashtirish, yetakchi kompozitorlarning monografiyalari, esdaliklarini o'qib ular ijodi va texnikasi bilan tanishish, ish olib borish jarayonini o'rganishga yo'naltirish juda muhimdir. O'tmishdagi yirik kompozitorlarning musiqasini o'rganish aynan yosh kompozitorlarga katta yordam beradi.

Asarni o'rganib chiqish bu – uni bir marta chalish degani emas. O'rganish bu - asarni shu darajada o'zlashtirib esda saqlash kerakki, mavzuni yoddan bilish,

muallif g'oyasini tushunib olish, kompozitor ijodining sirini anglash demakdir. Motsart musiqasini Chaykovskiy mana shu tarzda o'rganib olgan.

### **Texnologiya va bastakorlik mahorati masalalari. Ijodiy mehnat tartibi.**

**Texnologiya va bastakorlik mahorati** masalalarini musiqiy san'atning yuqorida qayd etilgan g'oyaviy va badiiy vazifalari bilan chambarchas ko'rib chiqish lozim.

**Mahoratda** hech qachon aniq me'yor yoki qonuniyat mavjud bo'limgan. Har davr va zamonda musiqiy – tarixiy jarayondan kelib chiqqan holda bu me'yordarga turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjud bo'lgan. Biroq, yosh bastakorni “to'liq ijodiy erkinlik” nuqtai nazaridan o'qitish katta pedagogik xato hisoblanadi. O'quvchini san'atda shakl, kuy, garmoniya, faktura va orkestrovdan chuqur qonuniyatlarni o'rganishga ishontirish lozim. Bu holni to'g'ri tushuntirish uchun aniq mantiqiy tuzilmani kuzatish mumkin bo'lgan bironta adabiy matnga asoslanish mumkin: boshlanishida - matnning bayoni, so'ngra rivoji va syujetning chuqurlashuvi, avji va yakuni; san'atning mana shu estetik qonuniyatlariga musiqiy asarning tonal rejasi tamoyillarini ham kiritish mumkin. Tematik materialning takrorlanishi va bilinishi, taqqoslanish effektini qo'llash, garmoniya va cholg'ulashtirishning akustik asoslari va h.z. Aynan mana shu qonuniyatlarni o'zlashtirib olish mahoratning obyektiv asosini tashkil etadi.

Bo'lajak bastakor o'quv yurtida o'qishi davomida nazariy-amaliy fanlarni o'zlashtirish qatorida bastakorlik sinfida o'z mahoratini oshiradi. O'qituvchi bergen turli ijodiy vazifalarni bajarib o'z g'oyasini amalga tadbiq etish uchun kerakli bo'lgan texnologik vositalarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

O'quvchi bastakorni birinchi darslardanoq **bastakorlik mehnatining** qat'iy me'yoriga o'rgatish, dangasalikdan qochish va har kuni ijod bilan shug'ullanishini talab qilish lozim. Listning aytishicha “agar ijodkor tinmasdan ijod qilmasa, qiyinchiliklarni yengmasdan ularga qarab turaversa hech qachon yetuklikka erishmaydi”.

#### **Savollar:**

1. Yangi asarning ijrosida niamlarga e'tibor berish kerak?
2. Bastakorlik fanlarida adabiyotlarning o'mini belgilash?
3. Bastakorlar hayotida adabiyotning ahamiyatini aytинг?
4. Bastakorlik fanida adabiyotlar ahamiyatini belgilash?

#### **Topshiriq:**

1. Yangi asarning ijrosini tayyorlash.
2. Bastakorlik mahoratini oshirisht yo'lida qilinadigan vazifalarni o'rganib chiqish.
3. Bastakorlik mehnati samaralarini tushunib yetish.
4. P.Chaykovskiyning “ albomii” to'plamini tahlil qilish.
5. S.S.Prokofyev. Materiallar, xujjalalar, Hotiralar. Kitobini o'qib chiqish.

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Tyulin Yu.N. “Musiqi shakl” M.1965
2. Mazel. A. “Musiqi asarlarning shakli”. M.,1979
3. Messner Ye.Kompozitorlik asoslari. M., 1968

**Tayanch iboralar:** asar, tayyorgarlik, ijro, adabiyot, klassik musiqa, zamonaviy musiqa, texnologiya, mahorat, ijodiy mehnat.

## TEST SAVOLLARI

**1. Bastakorlik fanini o'tishda o'qituvchi qanday tayyorgarlik ko'rishi lozimmi?**

- a) har bir darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak
- b) \*umumiy kursga va har bir darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak
- v) alohida vazifalarni ajratib chiqishi kerak
- g) garmoniya asoslari bilan tanishib chiqishi kerak

**2. Bastakolikni o'qitish kursining maqsadi nimadan iborat?**

- a) \*\*"oddiydan murakkabga" tamoyiliga tayanishda;
- b) nazariy masalalari asosida tuzilishida;
- v) mavzularni ma'ruza va amaliyotlarga bo'lishda;
- g) garmoniya bo'yicha mashqlar tizimida

**3. Bastakorlik fanini o'qitish kursida asarlar tahlili qanday o'rinn tutadi?**

- a) \*muhim;
- b) mashqlar yozish bilan bir o'rinda
- v) dasturni o'rganish bilan bir o'rinda
- g) katta ahamiyatga ega emas

**4. Darsning mazmuni va tuzilishi qanday tuziladi?**

- a) o'tgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni tushuntirish
- b) yangi mavzuni tushuntirish va sinf ishini bajarish
- v) \*o'tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni tushuntirish, mashqlar yozish va uyga vazifani tushuntirish
- g) yangi mavzuni tushuntirish, mashqlar va uyga vazifa berish

**5. Talabaga baho qo'yishda qanday yondashasiz?**

- a) Yozma ishlarning to'g'rilingiga qarab;
- b) \*amaliy ishlarni to'g'riliği va musiqiyligi, fortepiyanoda to'g'ri ijro etishiga qarab.
- v) amaliy mashg'ulotlarni tezkorlik bilan bajarishiga qarab
- g) seminarlarga faol qatnashishiga qarab

**6. Kuyning garmonik mazmuni nima bilan belgilanadi?**

- a) melodiy yo'naliishi bilan;
- b) tuzilishi bilan;
- v) lad xususiyatlari bilan;
- g) \*barcha parametrlar bilan

**7. Asar bastalashda talabaga fakturaning qaysi turlarini tavsiya etasiz?**

- a) akkordli;
- b) gamofon-garmonik;
- v) polifonik;
- g) \* akkordli va gomofon-garmonik

**8. Musiqiy mavzuning bir necha marotaba o'zgarib takrorlanib kelishi qaysi shaklga xos?**

- a) davriyaga;
- b) 2 qisqli shaklga;
- v) 3 qisqli shaklga;
- g) \* variatsiyaga

**9. Refren qaysi shaklda mavjud?**

- a) 2 qisqli shaklda;
- b) \* rondoda;
- v) 3 qisqli shaklda;
- g) variatsiyada

**10. Sonata Allegro'si shakli qaysi janrda qo'llaniladi?**

- a) variatsiyada;
- b) rondoda;
- v) \*simfoniyada;
- g) oratoriyada

**11. Klassik simfoniya nechi qismdan iborat?**

- a) 1 qismdan;
- b) 2 qismdan;
- v) 3 qismdan;
- g) \*4 qismdan

**12. Bosh va yondosh partiyalar qaysi shaklda uchraydi?**

- a) \*sonatada;
- b) variatsiyada;
- v) rondoda;
- g) 3 qisqli shaklda

**13. Qo'shiq janrida nima ustivorlik qiladi?**

- a) \*vokal partiya;
- b) garmonik tuzilma;
- v) cholg'u partiyasi;
- g) polifonik tuzilma

**14. Prelyudiya janrining asoschisini aniqlang:**

- a) \*I.S.Bax;

- b) V.A.Motsart;
- v) L.Betxoven;
- g) E.Grig.

**15. Yordamchi tuzilmalarga nimalar kiradi?**

- a) Ohang, ibora, jumla;
- b) \* Bog'lovchi, muqaddima va xotima;
- v) bosh partiya va yondosh partiya;
- g) kuy, ritm, garmoniya

**16. Ekspozitsion tuzilmalarga nimalar kiradi?**

- a) \*Ohang, ibora, jumla;
- b) Bog'lovchi, muqaddima va xotima;
- v) bosh partiya va yondosh partiya;
- g) kuy, ritm, garmoniya

**17. Zamonaviy musiqa uslublarini aniqlang:**

- a) prelyudiya, fuga, sonata;
- b) \*seriya, atonalizm, dodekafoniya;
- v) rok, rep, jaz;
- g) qo'shiq, romans, xor.

**18. Estrada musiqa uslublarini aniqlang:**

- a) prelyudiya, fuga, sonata;
- b) seriya, atonalizm, dodekafoniya;
- v) \* rok, rep, jaz;
- g) qo'shiq, romans, xor.

**19. Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishiga nima deyiladi?**

- a) \* metr;
- b) ritm;
- v) o'lchov;
- g) sur'at

**20. Nota cho'zimlarining o'zaro bog'lanib ketma-ket kelishiga nima deyiladi?**

- a) metr;
- b) \* ritm;
- v) o'lchov;
- g) sur'at

**21. Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishiga nima deyiladi?**

- a) metr;
- b) ritm;
- v) \* o'lchov;

g) sur'at

**22. Harakat tuzilishiga nima deyiladi?**

- a) metr;
- b) ritm;
- v) o'lchov;
- g) \*sur'at

**23. Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabat tizimiga nima deyiladi?**

- a) \*lad;
- b) gamma;
- v) tonallik;
- g) interval

**24. A V AS A D A... ko'rinishdagi tuzilish qaysi shaklga xos?**

- a) \* rondo;
- b) variatsiya;
- v) sonata;
- g) simfoniya

**25. A A<sub>1</sub> A<sub>2</sub> A<sub>3</sub>... ko'rinishdagi tuzilish qaysi shaklga xos?**

- a) rondo;
- b) \*variatsiya;
- v) sonata;
- g) simfoniya

**26. A V A ko'rinishdagi tuzilish qaysi shaklga xos?**

- a) oddiy 2 qisqli shaklga;
- b) rondoga;
- v) \* oddiy 3 qisqli shaklga;
- g) davriyaga

**27. Band-naqarot ko'rinishidagi tuzilish qaysi janrga xos?**

- a) simfoniyaga;
- b) variatsiyaga;
- v) romansga;
- g) \*qo'shiqqa

## XULOSA

“Bastakorlikni o’qitish uslubiyoti” fani bastakor uchun alifbe singari zarur hisoblanadi. Musiqiy ifoda vositalari qatoridan joy egallaydigan musiqiy cholg’ular haqida nazariy va amaliy bilimlar ijodkor uchun juda muhim ahamiyatga ega. Yaxshi bastakor bo’lish uchun inson yoshlik chog’larida albatta biror-bir musiqiy sozni chalgan va uni mukammal o’zlashtirgan bo’lishi haqida ko’p bora fikr yuritganmiz. Qo’lingizdagи darslik yuqorida aytilgan fikrning mantiqiy davomini ifoda etadi. Zero, torli-kamonli cholg’ulardan birini puxta egallagan ijodkor torli-kamonli cholg’ular guruhiga kiruvchi boshqa cholg’ularni ham to’g’ri anglaydi. Yog’och damli yoki mis damli cholg’ulardan birini puxta egallagan ijrochi damli cholg’ular guruhini yaxshi tuShunadigan bo’ladi.

Yakkanavoz cholg’u uchun asar yaratish bilan simfonik orkestr uchun asar yaratish orasida katta farq bor. Yakkanavoz cholg’uning keng imkoniyatlaridan simfonik musiqada har doim ham foydalanilmaydi. Simfonik musiqada cholg’ularning birikishi natijasida vujudga keladigan ansambl katta ahamiyatga ega bo’ladi. Masalan, violonchel va valtornaning birikishi natijasida yuzaga keladigan tembr, yoki fleyta va skripkalarning birikishi natijasida vujudga keladigan ohang birikmasi asar g’oyasining mukammal ifodalanishiga xizmat qiladi. Shu bois, “cholg’ular haqidagi bilimlarni mukammal egalladim”, deyish noto’g’ri, albatta. Cholg’ularni yakka tartibda va ansambl holatida o’rganish natijasida imkoniyatlar istiqboli kengayaveradi.

Aziz talabalar, darslikda keltirilgan bilimlarni egallab bo’lganingizdan keyin sizning oldingizda katta ijodiyot maydoni vujudga keladi. Ushbu maydonda mustaqil izlanib, erkin ijod qilishingizda Sizlarga muvaffaqiyatlar yor bo’lsin!

## GLOSSARY

**Lad** – turg'un va noturg'un musiqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog'onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

**Orkestr** (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'u asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. CHolg'u asboblarining tarkibiga ko'ra orkestrlarning turlari: *simfonik* – to'liq tarkibdan iborat, *torli* – kamonli cholg'ular, *damli* - yog'och va mis damli cholg'ular, *shovqinli* - urma-zarbli cholg'ular.

**Partitura** (it. partitura – bo'lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqorida quyi tomon turdosh cholg'u asboblar bo'yicha keladi. O'z navbatida, bir turdag'i cholg'ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo'yicha pastki satrlarda yoziladi.

**Partiya** (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

**Akt** – opera, musiqali drama, baletning eng yirik bo'limini tashkil etadi. U lotincha aktus so'zidan kelib chiqqan bo'lib, harakat degan ma'noni anglatadi.

**Ansambl** – frantsuzcha so'z bo'lib, birgalikda degan ma'noni anglatadi.

**Antrakt** – aktlar orasidagi tanaffus.

**Ariya** - yakka xonanda va orkestr ijrosi uchun mo'ljallangan badiiy va shaklan yakunlangan epizod. Ariya bosh qahramonning musiqiy portreti bo'lib, uning negizida obrazni xarakterlab beruvchi asosiy musiqiy mavzu yotadi.

**Ariya-ariozo** - ariyaga o'xshab, italyan tilidan **kuychan** degan ma'noni anglatadi.

**Arietta** – mikroariya, ya'ni hajman kichik ariyalar.

**Balet** – xoreografiya, musiqa, baddiy san'atni o'zida mujassamlashtirgan, librettoga asoslangan sintetik janr bo'lib, yetakchi o'rinni raqs tashkil etadi.

**Duet** – ikkita ijrochidan iborat bo'lган ansambl

**Kavatina** - qo'shiq tuzilishidagi lirik ariyalar.

**Kvartet** – to'rtta ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Kvintet** – beshta ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Ko'rinish** - badiiy mohiyati yakunlangan bo'lim. Akning tarkibiy qismi.

**Leytgarmoniya** – opera yoki balet personajining, biron hodisasining xarakteristikasi bo'lib, yorqin individuallashgan garmonik tuzilma, formula, ranglar yordamida ochib beriladi.

**Leytmotiv** – yetakchi ohang, qisqa melodik aylanma, yoki ma'lum cholg'u zimmasiga yuklatilgan garmonizatsiyalashgan kuy. Ma'lum personaj, voqeа joyi,

holat, narsa, hodisa, his-tuyg'u va musiqiy sahma asar voqealarining boshqa omillari bilan bog'liq bo'lган holatlarni ifodalaydi.

**Leyttembr** – opera yoki baletda orkestr cholg'ulari tembr bo'yoqlari yordamida ochib beriluvchi obraz, voqeа, yoki xolat xarakteristikasidir.

**Libretto** italyancha libro – kitob so'zining kichraytirilgan ko'rinishi bo'lib, libretto – kitobcha ma'nosini anglatadi. Libretto adabiy asarning she'riy ko'rinishi bo'lib, uning asosida oldindan tuzilgan stsenariy, ya'ni operaning qisqacha mazmuni va rejasi yotadi.

**Musiqali drama** – milliy musiqa an'analariga asoslangan, opera janriga nisbatan yengil hisoblangan sintetik sahnaviy janrdir.

**Nonet** – to'qqizta ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Oktet** – sakkizta ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Opera** – vokal va cholg'u kuylarini, adabiyot, qisman she'riyat, teatr, dramaturgiya, sahnadagi aktyorlar ijrosi, tasviriy san'at (dekoratsiya, kostyumlar), raqs va unga monand bo'lган harakatlarni o'zida mujassamlagan sintetik janr. Opera so'zi XVIII asrda Italiyada paydo bo'lib, lotin tilidan opus (mehnat, ijod mahsuli) degan ma'noni bildiradi. (Opusning ko'plik ma'nosini operani bildiradi)

**Rechitativ** - italyancha rechitare – ovoz chiqarib o'qish, deklomatsiya qilish, jamoa oldida o'qish ma'nosini anglatadi. Rechitativ erkin deklamatsion kuylanadigan musiqiy nutq bo'lib, o'ziga xos musiqiy gapirish, ya'ni kuylashning deklamatsion shakli hisoblanadi.

**Sahna** - aktning yanada kichik qismi bo'lib, ma'lum bir holatni ifodalovchi kichik epizod.

**Sekstet** – oltita ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Septet** – yettita ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Tertset yoki trio** – uchta ijrochidan iborat bo'lган ansambl,

**Uvertyura** - frantsuzchada yangilik degan ma'noni anglatadi. Operada - orkestrli kirish qismi.

## ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz”. Toshkent: O’zbekiston, 2016.
2. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”. - Toshkent: O’zbekiston, 2017.
3. Shavkat Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz” - Toshkent: O’zbekiston, 2017.
4. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini o’rganish bo’yicha Ilmiy-uslubiy risola – Toshkent “MA’NAVIYAT” 2017, 190-bet
5. Евлахов О. Проблемы воспитания композитора. Л., 1984
6. Месснер Е. Основы композиции. М., 1981.
4. Когоутек Ц. Техника композиции в музыке XX века. М., 1978.
5. Петрусёва Н. Пьер Булез. Эстетика и техника композиции. М.-СПб. 2002
6. Лаврентьева И. Вокальные формы в курсе анализа музыкальных произведений. М., 1978.
7. Способин И. Музыкальная форма. М., 1980.
8. Jabborov A. O’zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Ma’lumotnoma, Т., 2004.
9. Мальмберг И., Хасанов А. Модальность в курсе преподавания гармонии и её претворение на основе узбекской монодии. Т., 2007.
10. Mansurov A. “Cholg’ulashtirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar (O'zbek xalq cholg'ulari orkestri)”. Т., 2006.; Т., 2008. ([www.conservatory.uz](http://www.conservatory.uz))
11. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
12. Назайкинский Е.В. Логика музыкальной композиции. М., «Музыка», 1982.
13. Янов-Яновская Н. Узбекская симфоническая музыка. Т., 1980.
14. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
15. Киянов Б., Воскресенский С. Руководство по инструментовке для эстрадных оркестров и ансамблей. М., 1981.
16. Браславский Д. Инструментовка для эстрадного оркестра. М., 1979.
17. Abdullayeva O. Ansambl cholg’ularini o’rganish. Т., 2006.
18. Abdullayeva O. Bastakorlik san’ati. Т., 2018.
19. H.Yo’ldoshev. “Ustoz va shogird odobi” O’zbekiston 2005
20. H.Abdukarimov. “Kasbiy pedagogika” Т.:O’qituvchi 2010.

### Internet saytlari

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musika>
3. [www.musika.uz](http://www.musika.uz)
4. <http://ortasound.ru/music-search/musika-olami>

## MUNDARIJA

### 1-semestr

So'z boshi		3
1-DARS:	Kirish. Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti fanining maqsad va vazifalari	5
2-4-DARSLAR:	Lad, ohang va metr. Tematizm ustida ish olib borish	7
5-6-DARSLAR:	Musiqada janrlar tushunchasi	9
7-8-DARSLAR:	Ifodaviy vositalar ahamiyati. Kuy, garmoniya, polifoniya, faktura.	11
9-10-DARSLAR:	O'quvchi-shogird iqtidorini aniqlash tamoyillari	12
11-12-DARSLAR:	Ekspozitsion tuzilmalar. Ohang, ibora va jumla mavzu sifatida. Davriya.	15
13-14-DARSLAR:	Fortepiano uchun kichik kuylar yaratish	16
15-16-DARSLAR:	Faktura	34
17-18-DARSLAR:	Yordamchi tuzilmalar. Bog'lovchi, muqaddima va xotimani bastalash uslubi	37

### 2-semestr

19-20-DARSLAR:	Musiqiy mavzu	39
21-22-DARSLAR:	O'quv jarayonini tashkil qilish	49
23-24-DARSLAR:	Estrada musiqasini bastalash asoslari	51
25-26-DARSLAR:	Badiiy - g'oyaviy tarbiya masalalari. Badiiy g'oya. Musiqiy til. Vokal janrlar ahamiyati	56
27-28-DARSLAR:	Kuyni garmoniyalash	59
29-32-DARSLAR:	Musiqiy shakl haqida tushuncha. Musiqiy shaklga oid umumiylar masalalarni o'rghanish	61
33-34-DARSLAR:	Polifonik uslublar	70
35-36-DARSLAR:	Yangi asarlarning jonli ijrosi	74
	Darslarda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun testlar	76
	Xulosa	80
	Glossariy	81
	Adabiyotlar	83

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>1-семестр</b>		
Предисловие.		3
1-Занятие:	Введение. Цели и задачи предмета Методика преподавания композиции	5
2-4- Занятия:	Лад, мелодия и метр. Работа над тематизмом	7
5-6-Занятия:	Понятие жанров в музыке	9
7-8-Занятие:	Важность выразительных средств. Мелодия, гармония, полифония, фактура.	11
9-10 Занятие:	Принципы определения таланта студента	12
11-12-Занятие:	Структура экспозиции. Мелодия, фраза и предложения как тема. Период.	15
13-14-Занятие:	Создание маленьких произведений для фортепиано.	16
15-16-Занятие:	Фактура.	34
17-18-Занятие:	Вспомогательные структуры. Методика сочинения связующего, начало и конец.	37
<b>2- семестр</b>		
19-20-Занятие:	Музыкальная тема.	39
21-22- Занятие:	Организация учебного процесса.	49
23-24- Занятие:	Основы сочинения эстрадной музыки.	51
25-26- Занятие:	Проблемы художественно-идеологического воспитания. Художественная идея. Музыкальная язык. Важность вокальных жанров.	56
27-28- Занятие:	Гармонизация мелодий. Kuyni garmoniyalash	59
29-32- Занятие:	Понятие музыкальной формы. Изучение общие вопросы о музыкальной форме.	61
33-34- Занятие:	Полифонические методы.	70
35-36- Занятие:	Живое исполнение новых произведений.	74
Тесты для закрепления усвоенного материала		76
Выводы		80
Глоссарий		81
Литература		83

## CONTENT

### 1-semester

Foreword		3
1- Lesson:	Enter. Goals and objectives of the subject Methods of teaching composition	5
2-4- Lesson:	Mood, melody and meter	7
5-6-Lesson:	The concept of genres in music	9
7-8-Lesson:	Importance of expressive means. Melody, harmony, polyphony, texture.	11
9-10-Lesson:	Principles for determining student talent	12
11-12-Lesson:	Exposure structure. Melody, phrase and sentences as a theme	15
13-14-Lesson:	Making small pieces for piano	16
15-16-Lesson:	Texture	34
17-18-Lesson:	Supporting structures	37

### 2-semester

19-20-Lesson:	Music theme	39
21-22-Lesson:	Educational process organization	49
23-24-Lesson:	The basics of composing pop music	51
25-26-Lesson:	Problems of artistic and ideological education. Art idea. Musical language.	56
27-28-Lesson:	The importance of vocal genres	59
29-32-Lesson:	Concept of musical form. Studying general questions about musical form.	61
33-34-Lesson:	Polyphonic methods	70
35-36-Lesson:	Live performance of new works	74
Tests to consolidate the assimilated material		76
Conclusions		80
Glossary		81
Literature		83

**NURALI ERKAYEV**

## **BASTAKORLIKNI O'QITISH USLUBIYOTI**

O'zbekiston davlat konservatoriysi bakalavriati  
3-kurs talabalari uchun  
**darslik**

(o'zbek tilida)

Muharrir	<i>O.Abdullayeva</i>
Badiiy muharrir	<i>N.Umurov</i>
Texnik muharrir	<i>D.Shamaxmudova</i>
Musahhih	<i>Sh.Gafurova</i>
Kompyuterda tayyorlovchi	<i>N.Erkayev</i>

Nashriyot listenziyasi AI № 154. 14.08.09.  
Bosishga 28.10.2020 yildaruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. "Tayms" garnitura.  
Shartlib.t. 16,5. Nashrb.t. 16,75. Adadi 350nusxa.  
Buyurtma № ..... . Bahosishartnomaasosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzilimiz: [WWW.gglit.uz](http://WWW.gglit.uz)**  
**E-mail: [info@gglit.uz](mailto:info@gglit.uz)**